

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**HARAKATLAR STRATEGIYASI –  
O‘ZBEKISTON MILLIY  
TARAQQIYOTI YANGI  
BOSQICHINING ASOSI**

**2022**

**affarov F.D.** falsafa fanlari doktori  
(PhD)

**Nafetdinova X.R.** katta o‘qituvchi



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“HARAKATLAR STRATEGIYASI – O‘ZBEKISTON MILLIY  
TARAQQIYOTI YANGI BOSQICHINING ASOSI”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Fuqarolik jamiyati**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:** **F.D.Muzaffarov** falsafa fanlari doktori (PhD).  
**X.R.Nafetdinova** katta o‘qituvchi.

**Taqrizchi:** **S.S.Raupov** tarix fanlari nomzodi, dotsent.

**O‘quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy  
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2021 yil “30” dekbardagi 5-sonli bayonnomma)**

## MUNDARIJA

<b>I. IShChI DASTUR .....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI .....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>15</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>86</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>106</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>112</b>

## I. IShChI DASTUR

### Kirish

**“Harakatlar strategiyasi – O‘zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi”** moduli hozirgi kunda boshqaruvda, korxona va tashkilotlarda Harakatlar strategiyasi dasturini joriy qilish va rivojlantirish, O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlarini o‘rganish hamda O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbiq etish masalalarini qamraydi.

Modulning maqsadi va vazifalari.

**“Harakatlar strategiyasi – O‘zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi”** fanini o‘qitishdan maqsad - tinglovchilar ongiga demokratianing nazariy asoslari va qadriyatlarini singdirish, demokratik jamiyatda yashash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**“Harakatlar strategiyasi – O‘zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi”** fanining vazifasi - O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirish; tinglovchilarni fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati, jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash to‘g‘risida tasavvurlarini boyitish.

### Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar

**“Harakatlar strategiyasi – O‘zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi”** o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- demokratik jamiyat to‘g‘risida nazariy bilimlar va ularning O‘zbekistonda qo‘llanilishi to‘g‘risida, O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy taraqqiyot jarayoni xaqida, jamiyatning sotsial madaniy taraqqiyoti to‘g‘risida **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- xalqda madaniy, ijtimoiy, siyosiy tasavvurlar shakllanishi va taraqqiyoti

to‘g‘risida, demokratik boshqaruv strategiyasi va etikasi haqida, demokratik taraqqiyotning o‘zbek modeli haqida, o‘tmish, bugun va kelajak voqealarini baholashda siyosiy-tarixiy tajribalardan foydalanish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi** zarur.

Tinglovchi:

– demokratik davlat boshqaruv nazariyasi bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lish, davlat hokimiyati organlari tizimini bilish, demokratik davlat boshqaruvi tuzilmasini, demokratik davlat qurilishi nazariyasi mohiyatini bilish va foydalana olishi **malakalarini egallashi** lozim.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

Fan mazmuni o‘quv rejadagi “O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi”, “Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **Modulning olyi ta’limdagisi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlarini o‘rganish va amaliyotga joriy qilishga oid zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradilar.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:**

<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat</b>				
	<b>Hammasi</b>	<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>			
		<b>Jami</b>	<b>jumladan</b>		
			<b>Nazariy mashg‘ulot</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot</b>	
1. “Rivojlanish”, “strategiya”, “konsepsiya” va “innovation rivojlanish” tushunchalarining mazmuni hamda turli xil yondoshuvlar.	4	4	2	2	

2.	Taraqqiyotning innovasion modeli.	4	4	2	2
3.	O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari.	4	4	2	2
4.	O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari.	4	4	2	2
5.	“Buyuk kelajak dasturi”ning mazmun-mohiyati.	4	4	2	2
6.	“Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” konseptual g‘oyasi – O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbiq etishning asosi.	4	4	2	2
7.	“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g‘oyasi – O‘zbekiston taraqqiyotining asosi.	2	2	2	
<b>Jami:</b>		<b>26</b>	<b>26</b>	<b>14</b>	<b>12</b>

### **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-Mavzu: “Rivojlanish”, “strategiya”, “konsepsiya” va “innovation rivojlanish” tushunchalarining mazmuni hamda turli xil yondoshuvlar.**

**Reja:**

1. “Rivojlanish”, “strategiya” tushunchalarining mazmun mohiyati.
2. “Konsepsiya” tushunchasining mazmuni hamda unga turli xil yondoshuv.
3. “Innovation rivojlanish” tushunchasining mazmuni.

**2-Mavzu: Taraqqiyotning innovasion modeli.**

**Reja:**

1. Innovasion yo‘llar orqali iqtisodiyotni rivojlantirish.
2. Innovasion g‘oyalarni targ‘ib etishning samarali yo‘llari.
3. Innovatsiyalar – iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili.

**3 - Mavzu: O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari.**

**Reja:**

1. O‘zbekiston ijtimoiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari.
2. O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining metodologik asoslari.
3. O‘zbekiston siyosiy rivojlanishining ilmiy asoslari.

**4 - O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari.**

**Reja:**

1. O‘zbekiston ijtimoiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari.
2. O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari.
3. O‘zbekiston siyosiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari.

**5-Mavzu: “Buyuk kelajak dasturi”ning mazmun-mohiyati.**

**Reja:**

1. “Buyuk kelajak dasturi”ning qabul qilinishidan maqsad.
2. “Buyuk kelajak dasturi” ning mazmun-mohiyati.
3. Dasturda belgilangan maqsad vazifalarning amaliyotga jorish qilinishi.

**6-Mavzu: “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, konseptual g‘oyasi – O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbiq etishning asosi.**

**Reja:**

1. “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” g‘oyasining mazmun mohiyati.
2. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati.
3. “Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash” g‘oyasi ostida targ‘ibot tadbirlarining o‘tkazilishi.

**7-Mavzu. “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g‘oyalari – O‘zbekiston taraqqiyotining asosi.**

**Reja:**

1. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbiq etish.
2. “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” g‘oyasining amaliyotga joriy etilishi.
3. “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” g‘oyasining ahamiyati.

### **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-Mavzu:** “Rivojlanish”, “strategiya”, “konsepsiya” va “innovation rivojlanish” tushunchalarining mazmuni hamda turli xil yondoshuvlar.

**Reja:**

1. “Rivojlanish”, “strategiya” tushunchalarining mazmun mohiyati.
2. “Konsepsiya” tushunchasining mazmuni hamda unga turli xil yondoshuv.
3. “Innovation rivojlanish” tushunchasining mazmuni.

**2-Mavzu: Taraqqiyotning innovation modeli.**

**Reja:**

1. Innovasion yo‘llar orqali iqtisodiyotni rivojlantirish.
2. Innovasion g‘oyalarni targ‘ib etishning samarali yo‘llari.
3. Innovatsiyalar – iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili.

**3 - Mavzu: O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari.**

**Reja:**

1. O‘zbekiston ijtimoiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari.
2. O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining metodologik asoslari.
3. O‘zbekiston siyosiy rivojlanishining ilmiy asoslari.

**4 - O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari.**

**Reja:**

1. O‘zbekiston ijtimoiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari.
2. O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari.
3. O‘zbekiston siyosiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari.

**5-Mavzu: “Buyuk kelajak dasturi”ning mazmun-mohiyati.****Reja:**

1. “Buyuk kelajak dasturi”ning qabul qilinishidan maqsad.
2. “Buyuk kelajak dasturi” ning mazmun-mohiyati.
3. Dasturda belgilangan maqsad vazifalarning amaliyotga jorish qilinishi.

**6-Mavzu: “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, konseptual g‘oyasi – O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbiq etishning asosi.****Reja:**

1. “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” g‘oyasining mazmun mohiyati.
2. “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” g‘oyasining amaliyotga joriy etilishi.
3. “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” g‘oyasining ahamiyati.

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL

### TA’LIM METODLARI

#### AQLIY XUJUM METODI

**Aqliy xujum** - g‘oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy xujum» metodi biror muammoni echishda talabalar tomonidan bildi - rilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy xujum metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga ta -labalarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Talabalar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talaba - lar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy xujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobjiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va no - standart fikrlashga o‘rgatadi.

Aqliy xujum metodidan foydalanilganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi talabalarda turli g‘oyalarni shakllanishiga olib keladi. Bu metod talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

**Vazifasi.** “Aqliy xujum” qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni ko‘rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilli - ligini yo‘qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni echish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o‘tiladi va guruh yanada jipslashadi.

**Ob’ekti.** Qo‘llanish maqsadiga ko‘ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), o‘qitish jarayonida (o‘quv materiallarini tezkor o‘zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o‘z-o‘zini

bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllanti - radi) asqotadi.

**Qo‘llanish usuli.** “Aqliy xujum” ishtirokchilari oldiga qo‘yilgan muammo bo‘yicha xar qanday muloxaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o‘z fikrlarini qay - tadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va xujum davomida ular tanqid qilin - maydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy xujum tugagach, muhimlik jixatiga ko‘ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

«Aqliy xujum» metodi o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Talabalarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda - yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda - mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


#### **«Aqliy xujum» metodining afzallik tomonlari:**

1. natijalar baholanmasligi talabalarni turli fikr-g‘oyalarning shakl - lanishiga olib keladi;
2. talabalarning barchasi ishtirok etadi;
3. fikr-g‘oyalari vizuallashtirilib boriladi;
4. talabalarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
5. talabalarda mavzuga qiziqish uyg‘otish mumkin.

#### **«Aqliy xujum» metodining kamchilik tomonlari:**

- o‘qituvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- o‘qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

## **«Aqliy xujum» metodining tarkibiy tuzilmasi**



### **«Aqliy xujum» metodining bosqichlari:**


1. Talabalarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Talabalar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Talabalarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalari ma'lum belgilari bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

### **«Aqliy xujum» metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:**

- a) Bildirilgan fikr-g'oyalari muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
- b) Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalari, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
- v) Bildirilgan fikr-g'oyalarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

#### **Mavzu bo'yicha asosiy tushuncha va iboralar**

Zamonaviy ta’lim vositasi tushunchasi , ta’lim vositasi turlari, ta’lim vositasini qo‘llash usullari



## **Guruxlarda ish olib borish qoidalari**

- ✓ O‘zaro hurmat va iltifot ko‘rsatgan xolda har kim o‘z do‘stlarini tinglay olishi kerak;
  - ✓ Berilgan topshiriqga nisbatan har kim aktiv, o‘zaro hamkorlikda va ma’suliyatli yondashishi kerak;
  - ✓ Zarur paytda g‘ar kim yordam so‘rashi kerak;
  - ✓ So‘ralgan paytda har kim yordam ko‘rsatishi kerak;
  - ✓ Gurux ish natijalari baholanayotganda hamma qatnashishi kerak;
  - ✓ Har kim aniq tushunishi kerakki:
  - ✓ O‘zgalarga yordam berib, o‘zimiz o‘rganamiz!
  - ✓ Biz bir qayiqda suzayapmiz: yo birga ko‘zlagan manzilga yetamiz, yoki birga cho‘kamiz!

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

**1-Mavzu:** “Rivojlanish”, “strategiya”, “konsepsiya” va “innovation rivojlanish” tushunchalarining mazmuni hamda turli xil yondoshuvlar.

#### **Reja:**

1. “Rivojlanish”, “strategiya” tushunchalarining mazmun mohiyati.
2. “Konsepsiya” tushunchasining mazmuni hamda unga turli xil yondoshuv.
3. “Innovation rivojlanish” tushunchasining mazmuni.

**Tayanch tushunchalar:** Harakatlar strategiyasi, rivojlanish, strategiya, konsepsiya, innovation rivojlanish.

2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovation rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib unda ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo‘llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovation texnologiyalarni tezkor joriy etish O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim shartidir.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgarilashini ta’minlaydigan zamonaviy innovation g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlil ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini ko‘rsatdi. Jumladan:

aholinining oliy ta’lim bilan qamrab olinganlik darajasi past;

oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejalarini va dasturlarini, talabalarni qabul qilish kvotasi miqdorini belgilashda, moliyaviy mablag‘larni taqsimlashda mustaqil emas;

ilmiy va innovation faoliyatni rivojlantirish uchun mas’ul vazirlik va idoralar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik lozim darajada emas, ilmiy-tadqiqot muassasalar va

laboratoriylar faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmagan; ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish darajasi past; innovasion menejment sohasida texnologiyalar transferini faol ilgari surish va amalga oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislar mavjud emas; ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga ajratilayotgan byudjet mablag‘lari yetarli emas; ilmiy va innovasion faoliyatni davlat tomonidan moliyalashtirish samarali va shaffof emas, byudjetdan tashqari va xususiy jamg‘armalar mablag‘larini jalb etishni rag‘batlantirish mexanizmlari mavjud emas, qarzni moliyalashtirishning ichki manbalari yetarli darajada rivojlanmagan; intellektual faoliyat natijalarini himoya qilish lozim darajada emas, ushbu sohada, ayniqsa davlat organlari va tashkilotlarida malakali mutaxassislar mavjud emas; qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalari, ikkilamchi resurslarni energetik utilizatsiya qilish sohalarida innovasion texnologiyalarni joriy etish darajasi past; mamlakatda, ayniqsa davlat kompaniyalarida korporativ munosabatlar va korporativ boshqaruv prinsiplari rivojlanmagan, bunda xorijdagi eng namunali amaliyot inobatga olinmayapti; mamlakatning yalpi ichki mahsuloti hajmida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorining ulushi kam.

Qayd etilgan kamchiliklar mamlakatimizning jadal innovasion rivojlanishiga, investisiyalarni jalb etishga, iqtisodiyotning o‘sishiga hamda davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi maqsadlar, vazifalar va asosiy yo‘nalishlarni nazarda tutadigan 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini (keyingi o‘rinlarda Strategiya deb yuritiladi) ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda:

1. Mamlakatning xalqaro maydondagи raqobatbardoshliligi darajasini va innovasion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish Strategiyaning bosh maqsadidir.
2. Bosh maqsadga erishishda Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan

iborat:

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga borib Global innovation indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; barcha darajada ta’lim sifati va qamrovini oshirish, uzlusiz ta’lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tiziminining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta’minlash; ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta’lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish; innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag‘lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalardagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish; boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish; mulkchilik huquqlari himoyasini ta’minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish; barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish. 1. Loyihaviy boshqaruв mexanizmlaridan foydalangan holda dasturiy-maqсадli prinsip asosida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini o‘tkazishga davlat tomonidan buyurtma berish orqali tadqiqotlar tashkil etish mexanizmini joriy etish. 2. Yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish. 3. Noyob ilmiy-texnik uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlarini tashkil etish. 4. O‘zbekiston Respublikasida ilmiy faoliyat nufuzini oshirish. 5. Mamlakatimiz va xorijdagi ilmiy-texnik axborot manbalarini to‘plash, saqlash va qayta ishslashga, axborot fondlari, ma’lumotlar bazalari va banklarini shakllantirish, yuritish va ulardan foydalanishga ixtisoslashgan respublika, tarmoq

va hududiy ilmiy-texnik axborot resurslari va tashkilotlaridan iborat davlat ilmiy-texnik axborot tizimini yaratish.

6. Intellektual mulk ob’ektlarini baholash mexanizmlarini takomillashtirish.
7. Texnologiyalar transferi bo‘yicha milliy va hududiy ofislarni tashkil etish.
8. Ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun texnoparklar xabi, erkin iqtisodiy zonalar, erkin sanoat zonalari, kichik sanoat zonalari va ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish.
9. Xorijiy hamkorlar bilan mahalliy ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarish va uni tashqi bozorda sotish bo‘yicha qo‘shma tashkilotlarni shakllantirish uchun davlat ko‘magini kuchaytirish.
  1. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga sarflanadigan davlat xarajatlarini ko‘paytirish va 2021 yilga borib bu ko‘rsatkichni yalpi ichki mahsulot hajmining 0,8 foiziga yetkazish.
  2. Innovasion faoliyatni moliyalashtirish bo‘yicha maxsus institutlar (innovatsiya jamg‘armalari, innovatsiya banklari, vechur jamg‘armalari) tashkil etish.
  3. Mamlakatni innovation rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish.
  4. Innovation taraqqiyotni mikromoliyalashtirish tizimini takomillashtirish.
  5. Ilmiy-texnologik rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish.
  6. Innovasion loyihalar va salohiyatli investorlarning doimiy ravishda yangilab boriladigan yagona ma’lumot bazasini tashkil etish.
  7. Innovasion loyihalar uchun grantlar va texnik ko‘mak mablag‘larini olish va ulardan foydalanish tartib-taomillarini soddalashtirish va shaffofligini oshirish.

Telekommunikatsiya sohasini normativ-huquqiy tartibga solish tizimini, shu jumladan davlat-xususiy sherikligi asosida tadbirkorlik sub’ektlari ishtirokini kengaytirish orqali takomillashtirish.

2021 yilgacha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xizmatlar eksporti ulushini ular umumiyligi hajmining 4 foiziga yetkazish.

Barcha operatorlar uchun xalqaro telekommunikatsiyalar tarmoqlariga

to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanishni erkinlashtirish.

Aholini axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalaridan foydalanishga rag‘batlantirish. Startap loyihalar uchun texnopark tashkil etish orqali mamlakatimizda dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish tarmog‘ini rivojlantirish.

1. O‘quv-tarbiya jarayoniga yangi ta’lim dasturlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart-texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini yanada yaxshilash (elektron modullar tashkil etish va masofaviy o‘qitishni joriy etish).

2. Nogiron bolalar ta’lim va tarbiyadan teng sharoitda bahramand bo‘lishi uchun sharoitlar yaratish maqsadida inklyuziv ta’limni rivojlantirish, shu jumladan:

ta’lim muassasalarida ko‘tarish qurilmalari, panduslar, sanitar xonalarda maxsus moslamalar o‘rnatish, tutqichlar, maxsus partalar, stollar va boshqa maxsus kompensator vositalari bilan jihozlash orqali "to‘siksiz muhit" yaratish;

imkoniyati cheklangan bolalarni integratsiyalashgan holda o‘qitish dasturlarini yaratish;

ta’lim muassasalarini tegishli kadrlar (pedagog-defektologlar, bolalarni ruhiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta’minlash.

3. Hududiy va milliy darajada ta’lim jarayoni natijalarini tizimli monitoring qilish asosida ta’lim sifatini va uning mamlakat innovation rivojlanishi darajasiga ta’sirini baholashning milliy tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

4. Mehnat bozoridagi tendensiyalar o‘zgarib borishini hisobga olgan holda qayta tayyorlashga muhtoj yoshlar uchun kasb-hunar kollejlarida qisqa muddatli o‘quvlar tashkil etish.

5. Aholining oliy ta’lim bilan qamrab olinishini oshirish.

6. Tabiiy va texnik fanlar yo‘nalishlari bo‘yicha talabalar ulushini ko‘paytirish.

7. Chop etilgan ilmiy maqolalar soni, ulardan iqtibos keltirish indeksi, xalqaro konferensiyalar va seminarlarda ishtiroki, olingan patentlari soni bo‘yicha tanlab olingan sohadagi eng faol oliy ta’lim muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining tadqiqot yo‘nalishini kuchaytirish.

8. Tarmoq va mintaqaviy iqtisodiyot ssenariylari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida innovasion faoliyat rivojini prognozlashtirish tizimining alohida bo‘g‘ini sifatida yetakchi oliv ta’lim muassasalarida forsayt markazlarini tashkil etish. Oliy ta’lim muassasasining ichki va tashqi muhitini ilmiy-texnologik prognozlashtirishni ta’minlash, ularning texnologik va innovasion muhitini va ustuvor innovasion yo‘nalishlarini rivojlantirish.

Xalqaro tajribani hisobga olgan holda korporativ huquqni rivojlantirish va korporativ boshqaruvning zamonaviy prinsiplarini joriy etish.

Iqtisodiyotni taraqqiyotning innovasion yo‘liga o‘tishini ta’minlaydigan raqobatbardosh bozorni shakllantirish va resurslardan samarali foydalanish.

Monopoliyaga qarshi siyosatni, shu jumladan davlat-xususiy sherikligini joriy etish hisobiga takomillashtirish, barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun tabiiy monopoliyalar sub’ektlari tovarlari, ishlari va xizmatlaridan foydalanishda teng sharoitlarni ta’minlash, monopol korxonalar mahsulotlariga narx shakllanishining samarali mexanizmlarini joriy etish.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun teng shart-sharoitlar yaratish va ichki bozorning monopollashuvini oldini olish.

2021 yilga borib davlat kadastro ishlarini yuritishning to‘liq raqamlashtirishini ta’minlash va mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-taomilini soddalashtirish.

Qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalaridan foydalangan holda elektr energiyasini ishlab chiqarish ulushini 2025 yilga borib 20 foizdan ziyodga oshirish.

2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha «Faol tadbirkorlik, innovasion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili» Davlat dasturini bajarish doirasida Farg‘ona vodiysi viloyatlarining iqtisodiy, investision va tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari ko‘rilmoxda. Avtomobilsozlik, energetika, kimyo, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari sanoati, agrar sohada innovasion texnologiyalar qo‘llaniladigan

loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, innovation g‘oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, olimlar va tadbirkorlarning innovation faoliyatini rag‘batlantirish, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish, Farg‘ona vodiysi viloyatlarining sanoati va iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Innovation rivojlanish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi va Farg‘ona viloyati hokimligining Farg‘ona shahrida davlat unitar korxonasi shaklida O‘zbekiston Respublikasi Innovation rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar innovatsiya markazini (keyingi o‘rinlarda Markaz deb ataladi) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

Farg‘ona viloyatining oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining talabalari, yosh olimlari va o‘qituvchilariga innovation loyihalarni ishlab chiqish hamda joriy qilish uchun zamonaviy ilmiy va laboratoriya asbob-uskunalar, axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalari bilan jihozlangan texnologik va ishlab chiqarish maydonchalarini taqdim etish yo‘li bilan ularning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun shart-sharoitlar yaratish;

oliy ta’lim va ilmiy muassasalar, tadbirkorlik sub’ektlari va ishlab chiqarish korxonalar o‘rtasida innovation g‘oyalar va loyihalar, mahsulotlar va texnologiyalarning istiqbolli turlarini ishlab chiqishda o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari rivojlanishini muvofiqlashtirish;

ilmiy va laboratoriya tadqiqotlari olib borish, tajriba namunalarini, sanoat mahsulotlarining prototiplarini ishlab chiqish va ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, shuningdek, innovation faoliyat natijalarining transferi va tijoratlashtirilishi, startap loyihalarni amalga oshirish, sanoat darajasida ularni to‘laqonli joriy etishda amaliy yordam ko‘rsatish yo‘li bilan yoshlar, olimlar va

o‘qituvchilarni iqtisodiyot sohalari va korxonalarining ilmiy-texnik muammolarini hal etishga jalb qilish;

Markaz tuzilmasida tashkil etiladigan kovorking-markazda yoshlar, olimlar va tadbirkorlarga maslahat, moliyaviy, buxgalteriya xizmatlari va boshqa xizmatlar, shuningdek, biznes-akselerator xizmatlari ko‘rsatish, axborot-kommunikatsiya vositalari va Internet tarmog‘iga kirish bilan ta’minlash;

xalqaro va mahalliy darajada e’tirof etilgan kompaniyalar, tashkilotlar, olimlar va mutaxassislar ishtirokida innovatsiyalar sohasida mahorat darslari, treninglar va malaka oshirish kurslari, shuningdek, dolzarb ilmiy-innovasion yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar, tanlovlardan o‘tkazish.

3. O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi huzuridagi «Yoshlar innovatsiya markazi» davlat unitar korxonasining tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Markaz direktoriga O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi bilan kelishgan holda xodimlarning umumiy belgilangan soni va mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi doirasida Markaz tuzilmasiga o‘zgartishlar kiritish huquqi berilsin.

**Belgilansinki:**

Markaz ilmiy va rahbar xodimlarining lavozim maoshlari byudjet mablag‘lari hisobiga fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovasion ishlarning davlat ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi ilmiy muassasalarning ilmiy va rahbar xodimlarining bazaviy lavozim maoshiga, boshqa xodimlarning lavozim maoshlari esa — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan lavozim maoshlariga tenglashtiriladi;

Markaz direktori Innovasion rivojlanish vaziri tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

4. Quyidagilar Markaz faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

Innovasion g‘oyalar va loyihalarni ishlab chiqarishga joriy qilish jamg‘armasining mablag‘lari;

Markaz tomonidan shartnoma asosida bajarilgan ishlar (tovarlar, xizmatlar)dan tushumlar;

O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan tanlovlар natijalari bo‘yicha ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirishga ajratiladigan mablag‘lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag‘lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi uch oy muddatda Markaz Ustavini ishlab chiqsin va tasdiqlasin, shuningdek, uning belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

6. Markazda yuridik shaxsni tashkil etmasdan Ishlab chiqarishga innovasion g‘oyalar va loyihalarni joriy etish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma deb ataladi) tashkil etilsin, quyidagilar uni shakllantirish manbalari etib belgilansin:

2018 yilda O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan 5 mld. so‘m miqdoridagi va Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 5 mld. so‘m miqdoridagi mablag‘lari;

Innovasion rivojlanish va innovasion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining Kuzatuv kengashi qarorlari bilan belgilanadigan miqdorlarda Innovasion rivojlanish va innovasion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan innovasion loyihalarni moliyalashtirishga ajratiladigan mablag‘lar;

Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlaridagi oliy ta’lim muassasalarining innovatsiya jamg‘armalariga yillik tushumlarning 10 foizi miqdoridagi ajratmalar;

Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarining xo‘jalik boshqaruvi organlari va davlat korxonalarining innovasion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalaridan ajratiladigan mablag‘lar;

Markaz ko‘magida yaratilgan innovasion mahsulotlar va ilmiy

ishlanmalarni tijoratlashtirish, shuningdek, Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh mablag‘larini joylashtirishdan tushgan daromad;

jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari, xalqaro va xorijiy tashkilotlarning grantlari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

7. Quyidagilar Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlar etib belgilansin:

innovasion loyihalar va startaplarning amalga oshirilishini moliyalashtirish, shu jumladan, texnik-iqtisodiy asoslashni ishlab chiqish, asbob-uskuna, xom ashyo, butlovchi va ehtiyyot qismlarni sotib olish, tajriba namunalari, sanoat mahsulotlarining prototiplarini ishlab chiqish;

Markazni zamonaviy ilmiy va laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, Markazda laboratoriya tadqiqotlarini o‘tkazish uchun laboratoriya jihozlari, reaktivlar va boshqa sarflash materiallarini sotib olish;

Markaz kutubxonasini shakllantirish va uni xalqaro va mahalliy ilmiy-texnik adabiyotlar bilan to‘ldirish, shuningdek, innovatsiyalar sohasida ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, tanlovlardan o‘tkazish.

8. O‘zbekiston Respublikasi Investisiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligining buyurtmalari asosida Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va Markaz faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliyaviy tashkilotlarining imtiyozli zayomlari, grantlari hamda texnik ko‘maklashish vositalarini jalg qilish masalalarini ishlab chiqsin.

9. Farg‘ona shahar hokimligi O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Markazni Farg‘ona viloyati, Farg‘ona ko‘chasi, 84-uy (keyingi o‘rinlarda ob’ekt deb ataladi) manzili bo‘yicha joylashgan Qirguli qurilish-sanoat kasb-hunar kolleji binosining bir qismida (477,4 kv m) ijara to‘lovining «nol» stavkasida joylashtirish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilinsin.

10. Ob’ektni rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va Markazni laboratoriya asbob-uskunalarini, mebel, inventar, kompyuter va boshqa tashkiliy texnika bilan jihozlash doirasida:

a) Farg‘ona viloyati hokimiyati huzuridagi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi — buyurtmachi;

tanlov (tender) savdolari natijalari bo‘yicha belgilangan tartibda aniqlanadigan tashkilotlar — bosh loyihalashtiruvchi va pudratchi tashkilotlar;

b) quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligining Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari — Markaz ob’ektini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash bo‘yicha ishlarni;

Innovasion g‘oyalar va loyihalarni ishlab chiqarishga joriy qilish jamg‘armasi mablag‘lari — Markaz faoliyatini boshlash uchun uni laboratoriya asbob-uskunalarini, mebel, inventar, kompyuter va tashkiliy texnika bilan jihozlash bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirish manbalari etib belgilansin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi ob’ekt bo‘yicha qurilish-montaj ishlari bajarilishi sifati ustidan belgilangan tartibda arxitektura-qurilish nazoratini o‘rnatsin.

Buyurtmachi bosh loyiha tashkiloti bilan birgalikda loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda va muddatlarda ishlab chiqilishini, ko‘rib chiqilishini va ularning vakolatli ekspertiza organlarida kelishilishini ta’minlasin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Markazning buyurtmalari bo‘yicha uning belgilangan tartibda yuqori tezlikdagi Internet tarmog‘iga ulanishini hamda uni zarur telefon aloqasi bilan ta’minlasin.

13. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari hokimliklari bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun-mohiyati va Markaz faoliyati aholi va tadbirkorlik sub’ektlari orasida keng yoritilishini ta’minlasin.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qachon qabul qilingan?
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ikkinchi ustuvor yo‘nalishi qaysi?
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi uchinchi ustuvor yo‘nalishi qaysi?
4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi qaysi?

### **2-Mavzu: Taraqqiyotning innovasion modeli.**

#### **Reja:**

1. Innovasion yo‘llar orqali iqtisodiyotni rivojlantirish.
2. Innovasion g‘oyalarni targ‘ib etishning samarali yo‘llari.
3. Innovatsiyalar – iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili.

**Tayanch tushunchalar:** Innovatsiya, iqtisod, innovasion g‘oya, ijtimoiy taraqqiyot, model, taraqqiyot.

Ma’lumki, har qanday taraqqiyot modeli davr talablari asosida yangi mazmun va shakl bilan to‘ldirib, boyitib boriladi. Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinayotgani islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Mazkur dasturilamal hujjat iqtisodiyotni rivojlantirish, uni izchil modernizatsiya hamda diversifikatsiya qilishni yanada chuqurlashtirish,

innovation, ya’ni bilimlar iqtisodiyotiga o‘tishni jadallashtirishga keng yo‘l ochib berdi.

Harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirishga bag‘ishlangan to‘rtinchi yo‘nalishining muhim qismlaridan biri ta’lim va fan sohalarini qamrab olgan. Xususan, uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorini zamonaviy ehtiyojlarga mos yuqori malakali kadrlar bilan ta’minalash, ilmiy tadqiqot va innovation faoliyatni rag‘batlantirish, uning yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish vazifalari qo‘yildi.

Bu tasodifiy emas, albatta. Chunki hozirgi paytda jahonda ta’lim taraqqiyoti boshqa tovar va xizmatlarga nisbatan ancha jadallab ketdi. Birgina misol: BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturida keltirilishicha, 2000 — 2030 yillarda dunyodagi oliy o‘quv yurtlari talabalari soni 4,2 barobar ortadi. Tabiiyki, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bunday yuqori darajada o‘smaydi.

Ta’kidlash kerakki, ta’lim cheklanmagan innovation resursdir. Uning boshqa tovar va xizmatlardan farqli o‘laroq “to‘yinish” nuqtasi yo‘q. Ta’lim tizimining rivojlanishi va takomillashuvi xalqning bilim darajasini oshirish, ularga xo‘jalik qarorlarini qabul qilishda muqobil yechimlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Binobarin, ishchi kuchining harakatchanligi, ularning kasbiy malakasi, individual qobiliyatlarini namoyon etish darajasi, tadbirkorlik fantaziysi, biznesni tashkil etish romantikasi, shartnomalarni bajarish etikasi, daromadlardan foydalanish san’ati, menejerlik va marketing missiyasi kishilarning bilim saviyasidan kelib chiqadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan ta’lim tizimi isloh qilinayotganining boisi ham shunda.

Sir emas, hozirgi kunda mamlakatimiz har o‘n ming aholi soniga hisoblaganda oliy o‘quv yurtlari talabalari soni bo‘yicha rivojlangan davlatlardan ancha orqada. Mavjud farqni kamaytirish maqsadida ta’limning an’anaviy — kechki va sirtqi, zamonaviy — barcha uchun barobar bo‘lgan inklyuziv, on-line,

masofali o‘qitish, ochiq va moslashuvchan -bilim berish shakllaridan keng foydalangan ma’qul.

Gap shundaki, mamlakatimiz “bir umrga yetadigan ta’limdan umr bo‘yi ta’lim olish” tizimiga o‘tmoqda. Bu universitetdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash, ularning malakasini uzluksiz oshirib borish tizimini yanada takomillashtirishni -taqozo etadi. Qolaversa, oldin ish joylarini yaratib, keyin kadrlar tayyorlashga o‘tish tizimi o‘tmishda qoldi. Malakali kadrlar innovation bilimlar bilan qurollanib, o‘zlariga o‘zları ish joylarini yaratishga o‘tishni rag‘batlantirish lozim bo‘ladi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik harakati yaqin ko‘makchiga aylanadi.

Innovation iqtisodiyot, bu — bilimlar, yangi g‘oyalar iqtisodiyoti ekan, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish unga o‘tishda o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaradi. Bunga ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi hisobiga taraqqiy etib borayotgan mamlakatlar tajribasi yaqqol misol bo‘la oladi. Negaki, agrar jamiyatda ishlab chiqarishning lokomotivi mehnat bo‘lsa, industrial jamiyatda — kapital, postindustrial jamiyatda esa ta’lim va bilimlardir.

To‘g‘ri, innovation iqtisodiyotni yaratish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. U innovatsiyalar oqimiga, doimiy texnologik takomillashuvga, ishlab chiqarish va eksportda qo‘srimcha qiymatga ega bo‘lgan yuqori texnologiyali mahsulotga asoslanadigan iqtisodiyot turidir. Bu yerda foydaning asosiy qismini moddiy ishlab chiqarish emas, balki olimlar va novatorlar intellekti, axborotlar oqimi yaratadi, xizmat ko‘rsatish sohasining hissasi jiddiy oshadi.

Innovation iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridir. Ammo ayni paytda AKTning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi juda past. Bu sohada Koreya Respublikasi, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Shvesiya, Singapur va boshqa davlatlar tajribasini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda innovation tovarlar ishlab chiqaradigan korxonalar soni ko‘payib borayotgani, texnika, axborot texnologiyalari universitetlarida hamda

chet el oliv o‘quv yurtlarining Toshkent shahrida ochilgan qator filiallarida innovator kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgani diqqatga sazovordir.

Umuman olganda, ulkan intellektual, tabiiy ishlab chiqarish salohiyatiga asoslangan Harakatlar strategiyasi ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi, O‘zbekistonimizning dunyo hamjamiyatidagi nufuzi va obro‘sini yanada oshirishi muqarrar.

"Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturning Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga oid qismi 15 ta bo‘lim, va 96 bandni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, parlament qo‘shma majlisi va tashkiliy yig‘ilishlarida belgilangan ustuvor vazifalar asosida "Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" davlat dasturi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Davlat dasturi umumiyligi kiymati 18,2 trln so‘m va 10,3 mlrd AQSh dollariga teng loyihalarni qamrab oladi. Shulardan: Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli fondlar hisobidan – 12.9 trln. So‘m Ijrochilar va banklar hisobidan – 2 trln. So‘m Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari va grantlar hisobidan – 3.3 trln so‘m va 10.3 mlrd AQSh dollar. Dasturni iqtisodga oid qismi 15 ta bo‘lim, va 103 bandni o‘z ichiga oladi. Narx-navo doimiy nazoratda bo‘ladi: 3.1 Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va narx-navoning barqarorligini va inflyatsiya darajasi prognoz ko‘rsatkichlaridan oshmasligini ta’minlash. - inflyatsion targetlash tizimiga o‘tish, ekonometrik modellashtirish instrumentlarini keng qo‘llash, makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish tizimi (forecasting and policy analysis)ni to‘liq tatbiq etish orqali iqtisodiy o‘sish va inflyatsiya muvozanatini ta’minlash, tashqi xavf-xatarlarni, pul-kredit va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini tizimli baholash nazarda tutiladi. Xalq puli to‘g‘ri sarflanadi:

3.2. Moliya tizimini isloh qilish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalananish tizimini yanada takomillashtirish, qo‘shimcha imkoniyat va manbalar hisobidan byudjet defisitini kamaytirish. - Ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga yo‘naltirilgan markazlashgan investisiyalar samaradorligini oshirish, davlat

investisiyalarini boshqarishni baholash (public investment management assessment) tizimini joriy etiladi. Yashirin iqtisodiyot hajmi kamayadi: 3.3. Soliq islohotlarini amaliyotga samarali joriy etish, soliq ma’muriyatçiligin shaffof yo‘lga qo‘yish, soliq yukini kamaytirish hamda soddalashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish. - Jahon banki o‘tkazgan savolnomada 15% tadbirkorlar yashirin iqtisodiyot tomonidan raqobat faoliyatlaridagi eng asosiy to‘sirlardan biri degan. - Xorijiy mutaxassislar ishtirokida “yashirin iqtisodiyot”ning vujudga kelish omillarini tahlil qilish va unga qarshi kurashish dasturini tasdiqlash nazarda tutilgan. Energiya sarfini kamaytirishga chaqiruv (Call for action): 3.4. Iqtisodiyot tarkibini yanada diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish, birinchi navbatda, mahalliy mineral xom ashyoni chuqur qayta ishlash bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni o‘zlashtirish, ishlab chiqarish tannarxini va energiya sarfini kamaytirish. - Energetika vazirligi tizimidagi tashkilotlarda nazorat va ma’lumotlar yig‘ish tizimini (supervisory control and data acquisition), energiya menejmenti tizimini (energy management systems) hamda boshqa turdagи axborot texnologiyalarini joriy etish va modernizatsiya qilish nazarda tutilgan. Infrastruktura yaratiladi:

3.6. Hududlarni kompleks rivojlantirish, mustahkam va barqaror zamonaviy ishlab chiqarish hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish. - infratuzilmasini rivojlantirish, bunga respublika va mahalliy byudjetlarning prognozdan yuqori tushumlarining yarmini yo‘naltirish;

- 2020-2022 yillarda markazlashgan manbalar hisobidan
- o yo‘l qurilishiga 2,8 trln so‘m,
- o suv tarmoqlariga - 2,7 trln so‘m,
- o elektr tarmoqlariga - 18,2 trln so‘m,
- o tabiiy gaz ta’mnotiga - 1,2 trln so‘m mablag‘ ajratish.

### **Har qaysi tarmoq ishiga baho berish osonlashadi:**

3.7. Hisobga olish va statistika tizimini takomillashtirish.

- 2020 yilda “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab

chiqiladi, unda milliy statistika tizimini tashkil etish, statistika ma'lumotlarini ishlab chiqarish, ulardan foydalanish va e'lon qilish talablarini o'rnatish aniq qilib belgilanadi. Kichik biznesga e'tibor yanada kuchayadi:

3.8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirishni ta'minlaydigan ishbilarmonlik muhitini yaratish.

- “Kichik va o‘rta biznes to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqiladi;
- monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining Oliy Majlisga hisobdorligini oshiriladi hamda yilda kamida ikki marta qo‘mitaning hisobotini eshitish amaliyotini joriy qilinadi;
- subsidiyalar, preferensiylar va imtiyozli kreditlar berish amaliyotini qayta ko‘rib chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarni faqat Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi xulosasini olgan holda kiritish amaliyotini joriy qilinadi;
- tadbirkorlar uchun yer uchastkalariga oid ma'lumotlarni ochiq va haqqoniy yetkazish tizimini takomillashtiriladi.

**Bank zamonaviylashadi, ish onlayn ravishda bitadi:**

3.9. Bank tizimini isloh qilishni davom ettirish, aholi va xo‘jalik sub’ektlariga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish, tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash hamda zamonaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish.

- bank tizimida inson omilini cheklagan holda raqamli texnologiyalar keng qo‘llaniladi;
- “kredit tarixi” axborot tizimini to‘liq ishga tushiriladi;
- Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankida “loyihalar fabrikasi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun yo‘nalishlar kesimida biznes loyhalar bazasini shakllantiriladi.

**Yo‘llar sifati oshadi, tirbandlik kamayadi, vaqt va mashina ta’mir puli tejaladi:**

3.10 Yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish sohasida ishlar sifatini oshirish, transport oqimini boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini joriy etish, transport infratuzilma ob’ektlarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilishda eskirgan normalarni qayta ko‘rib chiqish.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida

- O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha avtomobil yo‘llarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqiladi. Mavjud yo‘l infratuzilmasidan samarali foydalanish maqsadida transport oqimlarini boshqarishning zamonaviy tizimlarini qo‘llaniladi;

- 5,5 ming km uzunlikdagi avtomobil yo‘llari holatini yaxshilanadi;
- 600 ta yangi avtobuslar sotib olinadi.

### **Xorijiy investisiyalar yanada oshadi:**

3.11. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalarni jalb qilishda investisiya muhitini yanada yaxshilash, xorijiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash va huquqiy himoya qilish

- 2020–2022 yillarga mo‘ljallangan Investisiya dasturi doirasida loyihalarning tarmoq jadvallarini tasdiqlash, loyiha– smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazish, qurilish-montaj ishlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish chora-tadbirlari;
- barcha manbalar hisobidan 23 mlrd AQSh dollari miqdoridagi investisiyalarni o‘zlashtirish hamda 206 ta yangi yirik quvvatlarni ishga tushirish;

### **Eksport qiluvchilar qo‘lla-quvvatlanadi:**

3.12. Yangi bozorlarni o‘zlashtirish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishda eksportyor korxonalarni qo‘llab-quvvatlash choralarini va mexanizmlarini kengaytirish orqali hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining eksport salohiyatini yanada oshirish;

- Jahon savdo tashkiloti bilan muloqotlar faollashtiriladi va bu bo‘yicha 2020 yilga mo‘ljallangan “yo‘l xarita”si tasdiqlanadi;
- Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlikning milliy iqtisodiyotga ta’siri ko‘rib chiqiladi, qisqa, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda milliy iqtisodiyot

rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, har bir iqtisodiyot tarmog‘iga ta’siri baholanadi. Paxtaga davlat buyurtmasi bekor qilinadi:

3.13. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, intensiv texnologiyalar va innovation ishlanmalarni keng joriy qilish, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, klaster tizimini va barcha yo‘nalishlarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish yo‘nalishlarida qishloq xo‘jaligi sohasini isloh qilish

- Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan soha korxonalariga ko‘rsatma berish, resurslarni taqsimlash, reja belgilash kabi eski ish usullaridan mutlaqo voz kechiladi. Qishloq xo‘jaligi vazirligi tuzilmasining vakolat va faoliyat yo‘nalishlarini xalqaro funksional baholash (Management Functional Assessment Model – MFAM) mezonlari asosida qayta ko‘rib chiqiladi;
- 2020 yilda 44 ming gektarda yoki o‘tgan yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko‘p maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etiladi.

**IT sog‘lik va ta’limda qo‘llaniladi:**

3.14. “Raqamli iqtisodiyot”ni jadal rivojlantirish, inson faoliyatining barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, jumladan, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga, iqtisodiyotning real sektorida ishlab chiqarish va boshqarish tizimlarini avtomatlashtirish, axborot tizimining yaxlitligi va barqaror faoliyatini hamda axborot xavfsizligini ta’minlash.

- Telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantiriladi;
- yaqin 2 yilda barcha qishloq va mahallalar tezkor Internet bilan ta’minlanadi;
- Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida texnopark tashkil etiladi.

**Davlat roli iqtisodiyotda qisqartiriladi, bo‘sh binolar beriladi:**

3.15. Davlat boshqaruving zamонавиъи usullarini, davlat-xусусиъ sheriklik mexanizmlarini qo‘llash ko‘lamini kengaytirish, bo‘sh turgan yer maydonlari, bino va inshootlardan samarali foydalanishni jadallashtirish. - Rieltorlik faoliyati takomillashtiriladi. Barcha sotilayotgan ko‘chmas mulk ob’ektlari haqidagi

ishonchli axborotni real vaqt rejimida olish, ularning bozor narxini oshkora va shaffof shakllantirish imkonini beradigan ko‘chmas mulk bozorining yagona elektron platformasi tashkil etiladi.- Davlat ishtirokidagi korxonalarining raqobat muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi mavjud eksklyuziv huquqlarini qisqartiriladi.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Jamiyatimizda hukm surayotgan o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e’tiqodga mansubligidan qat’i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta’minalash e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Ularning o‘rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g‘oyalarni tarqatishga O‘zbekistonda mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi. Prezident Sh.Mirziyoevning ushbu fikrlari qaysi nutqidan olingan?
2. O‘zbekiston va uning bag‘rikeng xalqi tinchliksevar siyosat yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash tamoyillarini amalga oshirish pozitsiyasida doimo mustahkam turib kelmoqda”. Prezident Sh.Mirziyoevning ushbu fikrlari qaysi nutqidan olingan?
3. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasiga qanday taklif bilan chiqdi?
4. 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi nechta ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab oladi?

### **3 - Mavzu: O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari.**

#### **Reja:**

1. O‘zbekiston ijtimoiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari.
2. O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining metodologik asoslari.
3. O‘zbekiston siyosiy rivojlanishining ilmiy asoslari.

**Tayanch tushunchalar:** rivojlanish, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, siyosiy rivojlanish.

Har bir davrning o‘z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va hayotiy

tamoyillari bo‘ladi. Har bir zamonning o‘z zayli, qarashlari, munosabatlari, tafakkur tarzi bo‘ladi. Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, 2017 yil O‘zbekistonning tarixiy taraqqiyot va rivojlanishida butunlay yangi bosqichni boshlab berdi. Bu bevosita zamon bilan hamnafas, hozirgi sivilizatsiya talablariga javob beradigan, bugungi kun milliy va dunyoviy ehtiyojlarini nazarda tutgan, jahon davlatchiligi ilg‘or tajribalari bilan milliy xususiyatlarimiz, qadriyatlarimiz, davlatchilik usul va uslublarimiz bilan uyg‘unlashib ketgan, sintezlashgan kuchli va qudratli siyosiy tafakkur bilan bog‘liq. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” ayni ana shu zamonaviy tafakkurni mamlakatni modernizatsiya qilish, jamiyatni rivojlantirish, boshqaruvni erkinlashtirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bilan birga xalqaro maydonda O‘zbekistonning o‘z so‘zi, qat’iy xulosasi, umumsayyoraviy masalalarni hal qilishda, ichki va tashqi siyosatda o‘zgarmas, izchil pozisiyaning mavjudligi bilan alohida ajralib turadi. O‘zbekistonda mustaqillikka erishgach yangi tarixiy sharoitlarda, yangi davlatchilikka asos solindi. Huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatni vujudga keltirildi. Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohada tub burilishlar yasaldi. Tashqi siyosatda O‘zbekiston jahon hamjamiatining teng huquqli subektiga aylandi va o‘zining qat’iyatli siyosiy pozitsiyasini namoyon etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagи **“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”**gi Farmoni qabul qilindi. Bu Farmon har tomonlama taraqqiyotning muhim asosi bo‘lib xizmat qiladi. Harakatlar strategiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog‘ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi. Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va

hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir. Xususan, Farmonda mamlakatni rivojlantirishning **beshta ustuvor yo‘nalishlari** belgilangandi. Mazkur yo‘nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo‘limlardan iborat:

*I. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish:*

- 1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;
- 1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;
- 1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish;

*II. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish:*

- 2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish;
- 2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash;
- 2.3. Ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish;
- 2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish;
- 2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash;
- 2.6. Yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.

*III. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish:*

- 3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish;
- 3.2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish;
- 3.3. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;
- 3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish;

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

*IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirish:*

4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish;

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish;

4.4. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish;

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish

*V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.*

5.1. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar;

5.2. Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi tasdiqlanib boriladi.

**Davlat va jamiyat qurilishi tizimining takomillashtirish.**

Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi “**Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish**” deb nomlanadi. Ushbu yo‘nalishda quyidagi strategik vazifalar belgilandi:

1. Demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalaning rolini yanada kuchaytirish.

2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish.

3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.

Mustaqillik yillarida Konstitutsiya va qonunlarga binoan O‘zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari, Senatning va Qonunchilik palatasining alohida vakolatlari qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatining mustaqil va demokratik tamoyillar asosida kechishini ta’minlay oladigan darajada belgilandi. Mamlakatimizda Parlament islohotlarini yanada chuqurlashtirish natijasida ikki palatali parlament tashkil etildi, O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi hokimiyati

huquqiy davlat talablariga javob beradigan darajada faoliyat yurita boshladi. Harakatlar strategiyasida «davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish»ga doir strategik vazifa qo‘yildi. Shu maqsadda, Harakatlar dasturida Oliy Majlisning hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiga asosan boshqa hokimiyat tarmoqlari bilan muvozanatni va o‘zaro bir-birini tiyib turishni ta’minlash, uning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish maqsadida **«Parlament nazorati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida»gi** O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqildi, loyihada Oliy Majlis Konunchilik palatasining deputati va Senat a’zosi tomonidan parlament nazorati vakli sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini o‘rganib, tahlil qilish hamda uning natijalari bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish, Oliy Majlisning tadbirkorlik subektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili (biznes ombudsman)ni parlament nazorati subekti sifatida belgilandi 37. Harakatlar strategiyasida Prezident Sh.M. Mirziyoev ilgari surgan - «Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» prinsipini ijtimoiy-siyosiy hayotda amalga oshirishga doir dasturiy maqsadlar ham mujassamlashgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining joylarda ishlarning holatini o‘rganish va xalq bilan muloqot qilish maqsadida hududlardan saylangan deputat va senatorlar har oyda 10-12 kun davomida bir tumanda bo‘ladi. Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishi tizimini yanada takomillashtirish maqsadida yana bir

qator qonun va qonun osti hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish belgilangan:

1. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tadbirkorlik subektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili (biznes ombudsman) to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish;
2. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish;
3. Aholining senatorlar va deputatlar bilan o‘zaro munosabatlarini, Oliy Majlisning xalq bilan muloqotini takomillashtirish maqsadida «Elektron parlament» tizimini joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilishga doir O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini tayyorlash;
4. Siyosiy partiyalar deputatlik guruhlarining mahalliy ijob hokimiyati organlari faoliyati ustidan nazorat qilinishidagi huquq va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasi mamlakat hayotida fuqarolik jamiyatni institutlariningrolini oshirishga qaratilgan muhim qoida bilan to‘ldirildi. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan ham amalga oshirilishi haqidagi norma bilan to‘ldirildi. Shundan kelib chiqqan holda Harakatlar strategiyasida ham fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki davlat tomonidan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalasining strategik vazifa sifatida ilgari surilishi jamoatchilik boshkaruvini tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. 2016 yil 11 apreldan O‘zbekiston Respublikasining «Parlament nazorati to‘g‘risida»gi Qonuni kuchga kirgan. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 13 iyundagi O‘RQ-436-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O‘R QHT, 2017 y., 24-son Fuqarolik jamiyatni institutlarini

rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish demokratik davlat barpo etishning muhim shartidir. Fuqarolik jamiyatni institutlaridan biri fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi hisoblangan mahalladir. Yurtimizda azal-azaldan mahalla tarbiya o‘chog‘i hisoblanadi. Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashda uning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig‘inlari tomonidan ilgari mahalliy davlat hokimiyyati organlariga taalluqli bo‘lgan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda. Amalga oshirilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida mahalla noyob, dunyoda o‘xhashi bo‘lmagan tuzilmaga aylandi. 2017-yilning 8 oyidagi davomida Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi asosida zamonaviy talablarni inobatga olgan holda, 16 ta vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning tuzilmasi, vazifa va funksiyalari qayta ko‘rib chiqildi, 20 ta davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar qayta tashkil etildi. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish. Harakatlar strategiyasining ikkinchi ustuvor yo‘nalishi “Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish” deb nomланади. Bundan ming yil muqaddam ulug‘ bobomiz Abu Nasr Forobiy: “*Qonunlari kuchli davlat qudratli bo‘ladi. Qonunlari mukammal shahar mukammal shahardir*”, - degan edi. Darhaqiqat, haqiqiy erkinlik, erkin va ozod faoliyat amaldagi qonunlar doirasidagi faoliyatdir. Boshqacha qilib aytganda, haqiqiy demokratiya - qonunlar diktaturasi. Ana shundagina qonun ustuvorligiga erishiladi va barchaning qonun oldida tengligi ta’minlanadi. Har qanday davlatning mustahkamligi, uning adolatli va qat’iyatli siyosati, ijtimoiy adolatni, haqiqatni, fuqarolar haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar asosida qo‘riladi. Ayni qonun doirasidagi erkinlik, qonun doirasidagi erkin faoliyat ishlab chiqarish madaniyatini ham, turmush turzi ma’naviy meyorlarini ham davlat boshqaruvi tamoyillarini ham qadriyatga aylantiradi.

Harakatlar strategiyasi qabul qilinguniga qadar, uning muhokamasi davrida va qabul qilinganidan so‘ng sud-huquq tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator

hujjatlar qabul qilindi. Dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktabrda “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon; 2016 yil 20 sentabrda “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun; 2017 yil 9 yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun; 2017 yil 21 fevralda “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon; 2017 yil 29 martda “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi Qonun; 2017 yil 29 martda “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun; 2017 yil 6 aprelda “O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”gi Qonun (80, 81, 83, 93, 107, 110, 111, 112); 2017 yil 12 aprelda “O‘zbekiston Respublikasi sudyalar oliv kengashi to‘g‘risida”gi Qonun; 2017 yil 12 aprelda «Sudlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual va Xo‘jalik protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi Qonunlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlarga asosan bu yo‘nalishda qator islohatlar amalga oshirildi. Inson himoyachisi hisoblangan sud organlarining chinakam mustaqilligini ta’minlovchi dastlabki qo‘yilgan qadam sudyalarini **almashtirib bo‘lmaslik prinsipining** mustahkamlanishi bo‘ldi. Sudya lavozimida bo‘lishning ilk marotaba *besh yillik, keyin o‘n yillik muddatini, so‘ng muddatsiz* davrini belgilashga oid normalar kiritildi. Sudlarning mustaqilligiga bag‘ishlangan Yevropada nufuzli hujjat sanaluvchi Sudyalarning mustaqilligi, samaradorligi va roli to‘g‘risidagi 12-Tavsiyalarga asosan, sudyalar mustaqilligining muhim tamoyillaridan biri, bu ularni **almashtirib bo‘lmaslik prinsipidir**. Mazkur hujjat mazmuniga ko‘ra, sudya pensiyaga chiqqunga qadar vakolat muddati kafolotlangan bo‘lishi nazarda tutilgan. Sudyani lavozimiga doimiy tayinlash, faqat u intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka tortilganda yoxud o‘z sudyalik vazifalarini

bajara olmay qolganda tugatilishi mumkin. Muddatidan oldin pensiyaga chiqish faqat sudyaning iltimosiga yoki tibbiy asoslarga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi belgilandi. Oliy sudning sudyalari uchun sudyalik lavozimida bo‘lishning eng yuqori yoshi 70 yoshni, boshqa sudlarning sudyalari uchun 65 yoshni tashkil etadi. Ushbu kiritilgan normalar sudyalar mustaqilligini kafolotlash, mamlakatimizda professional sudyalar korpusini shakllantirish, sud tizimini yetuk va malakali, odil sudlov sohasida katta tajribaga ega bo‘lgan, qo‘li va dili toza sudyalar bilan to‘ldirishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda, sud hokimiyatining boshqa hokimiyat organlari ta’siridan xalos bo‘lishiga xizmat qiladi.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi sudyalar oliy kengashining roli ham katta ahamiyatga ega bo‘lishi nazarda tutilmoqda. Oliy sudlov standartlariga doir o‘z tavsiyalari bilan mashhur Venetsiya komissiyasi sudyalarni tayinlaydigan organ ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatdan mustaqil bo‘lishi zarurligini e’tirof etadi. Shu maqsadda, hokimiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, siyosiy qarashlardan xoli va boshqa tashqi ta’sirlardan himoyalangan organ sifatida Sudyalar Oliy Kengashi shakllantirildi. Kengash jami **yigirma bir nafar** kishidan iborat tarkibda: sudyalar; huquqni muhofaza qiluvchi organlar; fuqarolik jamiyati institutlari vakillari; huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan akllantirilishi lozimligi mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti uchchala davlat hokimiyati organlariga nisbatan masofa saqlagani bois (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 89-moddasi) Kengash tarkibini shakllantirishda muayyan vakolatlarga ega. Qonunchilikka ko‘ra Kengash raisi Prezident tavsiyasi va Senat tasdig‘i asosida shakllantirilishi belgilandi. Navbatdagi o‘zgartirish va qo‘srimchalardan biri sud hokimiyatining ikki oliy organi – Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudining sud tizimini boshqarishdagi vazifalarini takrorlanishiga barham beruvchi normadir. Uning mazmuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi birlashtirilib, fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy ish yurituvi sohasida sud hokimiyatining yagona organi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini tashkil qilish mustahkamlandi. Mazkur norma ikki sud o‘rtasidagi

huquqiy ishlarning taalluqliligi borasidagi tortishuv va ziddiyatlarga chek qo‘yadi. Tegishli qonun hujjatlarini amaliyotda qo‘llash yuzasidan **yagona sud amaliyotini** ta’minlanishiga zamin yaratib, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolotlarini kuchaytiradi. Kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalarning navbatdagisi ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma’muriy nizolarni, shuningdek, ma’muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari, tuman (shahar) ma’muriy sudlari tashkil etilishiga doir bo‘lgan normadir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 110-moddada ma’muriy sud ishlarini yuritishga doir bo‘lgan masalani o‘z mazmunida mustahkamlagan edi. Biroq ularning tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabat biroz oqsayotgan edi. Ma’muriy sudlarni tuzish masalasini jadallashtirishgan yana bir omil – jinoyat qonuni normalarini liberallashtirish siyosati bo‘lib hisoblanadi.

Qonunchilikda o‘z ifodasini topgan o‘zgartirish va qo‘srimchalardan yana biri bu – tumanlararo iqtisodiy sudlarning tashkil etilishidir. Fuqarolar o‘rtasidagi iqtisodiy, fuqaroviylar, ma’muriy va boshqa huquqiy nizolar xo‘jalik sudlari tomonidan ko‘rib chiqilar edi. Biroq ushbu toifadagi nizolar asosan viloyat xo‘jalik sudlarida birinchi va apellyatsiya bosqichlarida ko‘rilishi nazarda tutilgan edi. Xo‘jalik sudlarining faqatgina viloyat darajasida mavjudligi, ularning alohida tumanlardan uzoq masofada ekanligi tumanlararo iqtisodiy sudlarni tashkil etish zaruratini keltirib chiqardi.

Navbatdagi o‘zgartirish va qo‘srimcha mamlakatimizda "Xabeas korpus" instituti qo‘llanishini yanada kengaytirish doirasida kiritilgan bo‘lib, bu – prokurorlarning pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish va ekskumatsiya qilish kabi tergov harakatlarini o‘tkazishga sanksiya berish bo‘yicha vakolatlarining sudlarga o‘tkazilishi nazarda tutilganligidadir. “Harakatlar strategiyasi”dan kelib chiqib, shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalardan biri, bu jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga qisqartilishidir. Shu bilan bir qatorda, qamoqqa olish va uy qamog‘i tarzidagi extiyot choralarini

qo‘llashning, shuningdek, dastlabki tergovning eng ko‘p muddati 1 yildan 7 oyga qisqartilishi, qamoqqa olish va uy qamog‘i choralar qo‘llanilayotgan shaxsning huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan. Inson huquq va erkinliklarini ustivor ekanligini tasdiqlovchi yana bir norma qo‘sishimcha tergovning bekor qilinishi bo‘lib hisoblanadi. Bu qoida konstitutsiyaviy norma – aybsizlik prezumpsiyasining mantiqiy rivojlanishi bo‘lib, tortishuv va taraflar tengligi, haqiqatni anglash prinsiplari real ta’minlanishiga kafolat beradi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari institutining ishonchli kafolat etuvchi munosabatlardan yana biri, bu – mediatsiya – yarashtirish institutini takomillashtirishdir. Jismoniy va yuridik shaxslarga o‘zaro nizolarni suddan tashqarida, muqobil hal etish imkonining berilishi, avvalambor, fuqarolarga nizolarni qisqa muddatlarda yechilishini, shuningdek, ortiqcha mablag‘larning sarflanishiga chek qo‘yilishini, turli ovoragarchiliklarni oldini olinishi kabi imkoniyatlarni beradi. Bu vaziyatdan kutiladigan natija esa, taraflar orasidagi o‘zaro hurmat va ishbilarmonlik munosabatlarini saqlanib qolinishi bo‘lib hisoblanadi. Ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish masalalariga oid munosabatlar qaysi yangi normalar bilan boyitildi? 2017 yil 9 yanvarda “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi, ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ma’muriy qamoq Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 29-moddasiga muvofiq 3 sutkadan 15 sutkagacha bo‘lgan muddatga, favqulodda holat rejimi sharoitlarida esa 30 sutkagacha muddatga qo‘llanishi nazarda tutilgan. Ma’muriy qamoqqa olish ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 21 ta moddasida ko‘zda tutilgan. Biroq, shu paytga qadar qonunda ma’muriy qamoq ko‘rinishidagi jazoni o‘taydigan joylar va ularning huquqiy mavqeい belgilanmagan edi. Qonun qabul qilingach, ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi bilan bog‘liq barcha munosabatlar huquqiy jihatdan tartibga solindi. 2017-yilning 19 yanvarida “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qaroriga asosan yuridik xizmat nufuzi oshirildi va yangi vazifalar bilan to‘ldirildi. Xususan, yuridik xizmatga jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va

erkinliklarini amalga oshirishga ta’sir etadigan davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari yuzasidan xulosalar berish; Rahbariyatga faoliyatida qonun ustivorligi va qonuniylikni ta’minlash ahvoli yuzasidan hisobot taqdim etish; Nizolar vujudga kelganda ularni sudgacha hal qilish choralarini ko‘rish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakati yoki harakatsizligi yuzasidan berilgan shikoyatlarning majburiy tartibda yuridik xizmatlar tomonidan ham ko‘rib chiqilishini belgilovchi va boshqa masalalarda ular mas’uliyatini oshirishga qaratilgan yangi funksiyalar yuklandi. Yuridik xizmat xodimlarini lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish masalalarini majburiy tartibda adliya organlari bilan kelishish hamda adliya organlariga yuridik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik talablarini buzgan davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, shuningdek, yuridik xizmat xodimlariga nisbatan intizomiy ish yuritishni qo‘zg‘atish huquqini beruvchi tartiblarning joriy etilishi har bir rahbarning mas’uliyatini kuchaytiradi. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda sud tizimining mustaqilligini ta’minlash, fuqarolarning daxlsiz huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyat qonunchiligin liberallashtirish, odil sudloving amaldagi mustaqilligiga erishish amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning “Islohot – inson uchun!” degan hayotiy shiorning amaldagi ifodasidir. Binobarin, ana shu tub yangilanishlar jamiyatimizda qonun ustivorligini ta’minlash bilan birga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli tarzda himoyalashga xizmat qiladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?
2. O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?
3. So‘z va e’tiqod erkinligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida kafolatlangan?
4. Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida kafolatlangan?

5. Fuqarolik jamiyati institutlarining majmuini yana qanday nomlash mumkin?
6. Sudyalar oliy maktabi qanday organning huzurida tashkil etildi?

#### **4 - O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari.**

##### **Reja:**

1. O‘zbekiston ijtimoiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari.
2. O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari.
3. O‘zbekiston siyosiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari.

**Tayanch tushunchalar:** rivojlanish, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, siyosiy rivojlanish.

#### **Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.**

Ijtimoiy sohani rivojlantirish jamiyat barqarorligi va davlat qudratini belgilaydigan muhim ma’naviy-ma’rifiy va ruhiy omillardan biri hisoblanadi. Jumladan, aholi bandligi qandaydir ish yoki hunar bilan shug‘ullanish darjasini konkret fuqaroning kundalik real daromadlari bilan uyg‘unlashib ketgan ijtimoiy muammodir. Bu Harakatlar strategiyasida asosiy masala sifatida **to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish** sifatida belgilangan. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligani oshirish jamiyat taraqqiyotida alohida mavqe kasb etadi. Ushbu masalaning naqadar dolzarbliji va real hayotiy haqiqatga asoslanganligani nazarda tutib, Prezident Sh.Mirziyoev arzon uy-joylar barpo etish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish hamda ularni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish g‘oyasini ilgari surmoqda. Bu bevosita mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotgan nogironlar, pensionerlar, yosh bolalar, yosh bolali onalarni himoya qilish, qishloq joylarida, olis shahar va tumanlarda sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ularni

zamonaviy asbob-uskunalar hamda malakali tibbiy xodimlar bilan ta'minlashni dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Kam ta'minlangan oilalarga alohida e'tibor berish, ular turmush sharoitini yanada yaxshilash choralarini har tomonlama ko'rish zarur bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda 2016 yilda siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalar bilan bir qatorda, ijtimoiy sohada xam chuqur sifat o'zarishlari ro'y berdi. Istiqlol yillarida respublikamizda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar hajmi 5 barobar ko'paytirildi. Har yili davlat budgetining qariyb 60 foizi sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xo'jalik, aholini ijtimoiy himoya qilish sohalaridagi vazifalar ijrosiga yo'naltirilmoqda. Jamiat ijtimoiy sohasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasi bo'lib, uning rivoji siyosiy-hukuqiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarga bevosita ta'sir etadi hamda ijtimoiy sohalar meyoriy mohiyatini belgilab beradi. Harakatlar strategiyasining «Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarida turadi. Maktabgacha ta'lim sifatini yuksaltirish - barkamol avlodni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'lim-tarbiya sohasini yanada isloh etish va tanqidiy baholash, uni takomillashtirish masalasi ham alohida e'tibor qaratdi. Mayjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi va uning asosida dastur ishlab chiqildi. Bugungi kunda ta'lim davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Davlat budgetidan ta'limga ajratilgan mablag'lar budget xarajatlar qismining 33,7 foizi darajasida rejallashtirilib ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz YaIM tarkibida 10-12 foizni tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi.

Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan maktablarning deyarli barchasida qurilish, kapital rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. O‘quv maskanlarining zamonaviy o‘quv laboratoriya, mebel jihozlari bilan ta’minlangani ta’lim sifati va mazmuniga yuksak e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari soni - 60 ta, OTM filiallari - 11 ta, xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasalarining filiallari - 7 tani tashkil etadi. Bugungi kunda oliy ukuv yurtlarimizda 260 ming nafardan ziyod talaba hayotning uzi talab yetayotgan 850 dan ortiq yo‘nalish va mutaxassisliklar bo‘yicha bilim olishmokda. Birgina 2016 yilning o‘zida oliy ta’lim tizimi rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan 10 dan ortiq meeriihuquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti va Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish, oliy ta’lim tizimini xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minalashga karatilgan kator farmon va qarorlarning qabul qilinishi yoshlarnizning jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ta’lim standartlariga to‘la mos kelgan bilimlarni yegallashlariga, ularning ijodiy va intellektual salohiyatlarini oshirishga xizmat qilmokda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldaggi «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. Bu farmonga muvofiq ilmiy darajalarni berish masalasi qayta ko‘rib chiqildi. Yoshshlarni qo‘llab-quvvatlash masalasi Harakatlar strategiyasida **«Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish»** deb nomlangan alohida bandda aks ettirildi va ijtimoiy sohani rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlaridan birining tarkibida o‘z ifodasini topdi. Ma’lumki, 2016 yilning 14 sentabrida O‘zbekiston Respublikasining 33 moddadan iborat **«Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi URQ-406-sun Qonuni qabul qilindi.** Qonunlarni qabul qilish masalaning bir jihat bo‘lsa, ularni amalga oshirishga qaratilgan choratadbirlarni ko‘rish uning boshqa bir jihatidir. Shu o‘rinda **«yoshlarga oid davlat siyosati»** tushunchasi nimani anglatishini bilib olishimiz lozim. **Yoshlarga oid davlat siyosati** deganda, davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni

ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy choratadbirlar tizimi tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni 6-moddasining 1-qismida «*yoshlarga oid davlat siyosati davlat dasturlari, xududiy va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin*», deb belgilab qo‘yilgan. O‘sha moddaning ikkinchi qismida «*Davlat dasturlari, xududiy va boshqa dasturlar yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-kuvvatlash, yosh futsarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro‘yobga chitsarishni ta‘minlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratish, jamiyat hayotida ularning o‘rni va faolligini oshirish, sog‘lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalash maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi*», deyiladi.

Shu o‘rinda «yoshlar» tushunchasining yuridik mazmuniga to‘xtalib o‘taylik. Xo‘sh, yoshlar deganda qonun hujjatlari kimni nazarda tutadi? «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasiga muvofiq, «*yoshlar (yosh fuqarolar)* - o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar»dir. *Yosh oila* deganda, er-xotinning ikkisi ham o‘ttiz yoshdan oshmagan oila tushuniladi. *Yosh mutaxassis* deganda, oliy yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasini bitirgan, ta’lim muassasasini bitirganidan so‘ng olgan ixtisosligi bo‘yicha uch yil ichida ishga kirgan va ma’lumoti to‘g‘risidagi hujjatda ko‘rsatilgan ixtisosligi bo‘yicha ishlayotganiga uch yildan ko‘p bo‘lmagan o‘ttiz yoshdan oshmagan xodim tushuniladi. *Yoshlar tadbirkorligi* deganda esa, yuridik shaxe tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek, ta’sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. «Yoshlarga oid davlat yeiyosati to‘g‘risida»gi Qonunning 5-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan. Ana shunday yo‘nalishlardan biri sifatida yosh oilalarini ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiymaishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini

amalga oshirish vazifasi belgilangan. Qonunning 9-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar tizimiga ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari, davlat sog‘lijni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘lijni saklash muassasalari, madaniyat va sport ishlari bo‘yicha organlar, mehnat organlari, prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, adliya organlari, mudofaa ishlari bo‘yicha organlar kirishi bilan bir qatorda, bu borada boshqa organlar va muassasalar ham qonun hujjatlariga muvofiq ishtirok etishi mumkinligi belgilab berilgan. O‘zbekiston Prezidentining xalqimiz o‘rtasida, ayniqsa yoshlar orasida kitobxonlik an’anasini yanada jonlantirish, kitob mutolaasiga keng e’tibor qaratish bo‘yicha amalga oshirayotgan sa’yharakatlari diqkatga sazovordir. Ana shu yo‘lda 2017 yilning sentabr oyida *o‘quvchi yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash* maqsadida ta’lim muassasalarida «Men sevib o‘qigan kitob» va «Eng yaxshi kitobxon» tanlovlari tashkil etildi. Bunday tadbirlar vositasida o‘quvchi yoshlar turli yot g‘oya va mafkuralardan himoya qilinadi, ularning mafkuraviy immuniteti mustahkamlanadi hamda jamiyatda yuksak ma’naviyatni qaror toptirishga hissa qo‘shiladi. Barchamizga yaxshi ma’lumki, mamlakatimizda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib kilishga, yoshlarning sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga yo‘naltirilgan uch bosqichli sport musobaqalari («Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada») yo‘lga qo‘yilgan. Mana shunday tadbirlardan Jizzax viloyatida 2017 yilning may oyida «Barkamol avlod» sport musobaqalari o‘tkazildi.

### **Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish.**

Ma’lumki, iqtisodiy islohotlar jamiyat taraqqiyotining muxim omili. Harakatlar strategiyasida ushbu masalaga alohida e’tibor berilib, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish **uchinchи ustuvor yo‘nalish** etib belgilandi. Jumladan, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish. Chunonchi, O‘zbekiston o‘tgan 26 yil mobaynida uzoq yillardan buyon yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmini 8 % dan tushirmayapti. U dunyoning eng tez rivojlanayotgan davlatlarining birinchi

beshtaligi tarkibida turibdi. Ana shu tarixiy yutuqni yanada rivojlantirish va iqtisodiy qudratli davlat maqomini saqlab qolish Harakatlar strategiyasining asosiy mazmunidir. Tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga ishlab chiqarilayotgan milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, jahon bozorida mavqeい va salmog‘ini oshirish choralarini ko‘rishni ilgari suradi. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va uni jadal rivojlantirish, bevosita dehqonchilikni boshqarishning yangi usul va uslublarini yangilashni, bu boradagi jahon tajribasini o‘zlashtirishni, amaliyotda joriy etishni taqozo etadi. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, hususiy mulk huquqini himoya qilish, uning ustuvor mavqeini yanada oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom yettirish masalasi alohida o‘rin tutadi. Har bir fuqaroning yaratuvchilik, bunyodkorlik qobiliyatini va yashab turgan joyidagi tabiiy sharoitni hisobga olib, tadbirkorlikning yangi shakl va usullarini joriy etishni taqozo etmoqda. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud saloxiyatidan samarali va optimal foydalanish, Harakatlar stratetayasidan kelib chiqadigan muhim vazifadir. Bunda har bir viloyat, tuman va shaharning tabiiy-geografik imkoniyatlari, yer va suv sharoiti, aholining turmush tarzi, ehtiyojlari, ijtimoiy muammolari va psixologiyasidan kelib chiqib, dehqonchilik, chorvachilik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, ularga mos shakllarni, usullarini joriy etish zarur. Ana shunda har bir fuqaro o‘z qobiliyati, dunyoqarashi va turmush ehtiyojidan kelib chiqib, o‘z yaratuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada butun mamlakat aholisi orasida yalpi safarbarlik, yaratuvchilik ruhiyati kuchayadi. Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagi vazifalarni tashkil etadi:

*1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustaxkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish:*

xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budgetining

barcha darajalarida mutanosiblikni ta’minlash, mahalliy budgetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budgetlararo munosabatlarni takomillashtirish; soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, solik ma’muriyat chiliginini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralar ni kengay-tirish; xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investisiya va kreditlardan samarali foydalanish.

*2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikasiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:*

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish; ishlab chikarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihamalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish; faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;
- eksport faoliyatini liberalallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikasiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

*3. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:*

- tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaliq ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;
- paxta va boshoqli don ekiladigan

maydonlarni qisqartirish, yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish; - fermer xo‘jaliklari, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chikarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, Tayyorlash, saqlash, sotish, kurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsa-tish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun kulay shart-sharoitlar yaratish;

*4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:*

- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya kilishni ta’minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarini bartaraf etish, unga to‘liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo‘lsa, davlat xam boy va kuchli bo‘ladi», degan tamoyilni amalga oshirish; - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat’iy oldini olish; - davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi subektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

*5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mayjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:*

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta’minlash; yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil

etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo‘jalik birlashma-larining mablag‘larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investisiyalarni jalg qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish; sanoat va xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga karam tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy budgetlarning daromad bazasini kengaytirish; Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi “**Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish**” deb nomlanadi. Ushbu yo‘nalishda quyidagi strategik vazifalar belgilandi:

1. Demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyaning rolini yanada kuchaytirish.
2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish.
3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.

Mustaqillik yillarda Konstitutsiya va qonunlarga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari, Senatning va Qonunchilik palatasining alohida vakolatlari qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatining mustaqil va demokratik tamoyillar asosida kechishini ta’minlay oladigan darajada belgilandi. Mamlakatimizda Parlament islohotlarini yanada chuqurlashtirish natijasida ikki palatali parlament tashkil etildi, O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi hokimiysi huquqiy davlat talablariga javob beradigan darajada faoliyat yurita boshladi. Harakatlar strategiyasida «davlat hokimiysi tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiysi faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish»ga doyr strategik vazifa qo‘yildi. Shu maqsadda, Harakatlar dasturida Oliy Majlisning hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiga asosan boshqa hokimiyat tarmoqlari bilan muvozanatni va o‘zaro bir-birini tiyib turishni ta’minalash, uning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish maqsadida «**Parlament nazorati to‘g‘risida»**<sup>36gi</sup> O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqildi, loyihada Oliy Majlis Konunchilik palatasining deputati va Senat a’zosi tomonidan parlament nazorati

vakli sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini o‘rganib, tahlil qilish hamda uning natijalari bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish, Oliy Majlisning tadbirkorlik subektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili (biznes ombudsman)ni parlament nazorati subekti sifatida belgilandi 37. Harakatlar strategiyasida Prezident Sh.M. Mirziyoev ilgari surgan - «Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» prinsipini ijtimoiy-siyosiy hayotda amalga oshirishga doir dasturiy maqsadlar ham mujassamlashgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining joylarda ishlarning holatini o‘rganish va xalq bilan muloqot qilish maqsadida hududlardan saylangan deputatva senatorlar har oyda 10-12 kun davomida bir tumanda bo‘ladi. Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishi tizimini yanada takomillashtirish maqsadida yana bir qator qonun va qonunosti hujjatlari loyihasarini ishlab chiqish belgilangan:

- 1. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tadbirkorlik subektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili (biznes ombudsman) to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish;**
- 2. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish;**
- 3. Aholining senatorlar va deputatlar bilan o‘zaro munosabatlarini, Oliy Majlisning xalq bilanmuloqotini takomillashtirish maqsadida «Elektron parlament» tizimini joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilishga doir O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini tayyorlash;**
- 4. Siyosiy partiyalar deputatlik guruhlarining mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan nazorat qilinishidagi huquq va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi**

**Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida»gi** O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasi mamlakat hayotida fuqarolik jamiyatni institutlariningrolini oshirishga qaratilgan muhim qoida bilan to‘ldirildi. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan ham amalga oshirilishi haqidagi norma bilan to‘ldirildi. Shundan kelib chiqqan holda Harakatlar strategiyasida ham fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki davlat tomonidan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalasining strategik vazifa sifatida ilgari surilishi jamoatchilik boshkaruvi tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. 2016 yil 11 apreldan O‘zbekiston Respublikasining «Parlament nazorati to‘g‘risida»gi Qonuni kuchga kirgan. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 13 iyundagi O‘RQ-436-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O‘R QHT, 2017 y., 24-son. Fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish demokratik davlat barpo etishning muhim shartidir. Fuqarolik jamiyatni institutlaridan biri fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi hisoblangan mahalladir. Yurtimizda azal-azaldan mahalla tarbiya o‘chog‘i hisoblanadi. Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashda uning o‘rnini va ahamiyati beqiyos. Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig‘inlari tomonidan ilgari mahalliy davlat hokimiyyati organlariga taalluqli bo‘lgan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda. Amalga oshirilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida mahalla noyob, dunyoda o‘xshashi bo‘lmagan tuzilmaga aylandi. 2017-yilning 8 oyi davomida Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi asosida zamонавиyl talablarni inobatga olgan holda, 16 ta vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning tuzilmasi, vazifa va funksiyalari qayta ko‘rib chiqildi, 20 ta davlat va xo‘jalik boshkaruvi organlari, boshqa tashkilotlar qayta tashkil etildi.

## **Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish.**

Harakatlar strategiyasining ikkinchi ustuvor yo‘nalishi “**Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish**” deb nomlanadi. Bundan ming yil muqaddam ulug‘ bobomiz Abu Nasr Forobiy: “*Qonunlari kuchli davlat qudratli bo‘ladi. Qonunlari mukammal shahar mukammal shahardir*”, - degan edi. Darhaqiqat, haqiqiy erkinlik, erkin va ozod faoliyat amaldagi qonunlar doirasidagi faoliyatdir. Boshqacha qilib aytganda, haqiqiy demokratiya - qonunlar diktaturasi. Ana shundagina qonun ustuvorligiga erishiladi va barchaning qonun oldida tengligi ta’minlanadi. Har qanday davlatning mustahkamligi, uningadolatli va qat’iyatli siyosati, ijtimoiy adolatni, haqiqatni, fuqarolar haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar asosida qo‘riladi. Ayni qonun doirasidagi erkinlik, qonun doirasidagi erkin faoliyat ishlab chiqarish madaniyatini ham, turmush turzi ma’naviy meyorlarini ham davlat boshqaruvi tamoyillarini ham qadriyatga aylantiradi. Harakatlar strategiyasi qabul qilinguniga qadar, uning muhokamasi davrida va qabul qilinganidan so‘ng sud-huquq tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator hujjatlar qabul qilindi. Dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktabrda “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon; 2016 yil 20 sentabrda “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun; 2017 yil 9 yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun; 2017 yil 21 fevralda “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon; 2017 yil 29 martda “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi Qonun; 2017 yil 29 martda “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun; 2017 yil 6 aprelda “O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”gi Qonun (80, 81, 83, 93, 107, 110, 111, 112); 2017 yil 12 aprelda “O‘zbekiston Respublikasi sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi

Qonun; 2017 yil 12 aprelda «Sudlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual va Xo‘jalik protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish haqida”gi Qonunlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlarga asosan bu yo‘nalishda qator islohatlar amalga oshirildi. Inson himoyachisi hisoblangan sud organlarining chinakam mustaqilligini ta’minlovchi dastlabki qo‘yilgan qadam sudyalarini **almashtirib bo‘lmaslik prinsipining** mustahkamlanishi bo‘ldi. Sudya lavozimida bo‘lishning ilk marotaba *besh yillik, keyin o‘n yillik muddatini, so‘ng muddatsiz* davrini belgilashga oid normalar kiritildi. Sudlarning mustaqilligiga bag‘ishlangan Yevropada nufuzli hujjat sanaluvchi Sudyalarning mustaqilligi, samaradorligi va roli to‘g‘risidagi 12-Tavsiyalarga asosan, sudyalar mustaqilligining muhim tamoyillaridan biri, bu ularni **almashtirib bo‘lmaslik prinsipidir**. Mazkur hujjat mazmuniga ko‘ra, sudya pensiyaga chiqqunga qadar vakolat muddati kafolotlangan bo‘lishi nazarda tutilgan. Sudyani lavozimiga doimiy tayinlash, faqat u intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka tortilganda yoxud o‘z sudyalik vazifalarini bajara olmay qolganda tugatilishi mumkin. Muddatidan oldin pensiyaga chiqish faqat sudyaning iltimosiga yoki tibbiy asoslarga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi belgilandi. Oliy sudning sudyalari uchun sudyalik lavozimida bo‘lishning eng yuqori yoshi 70 yoshni, boshqa sudlarning sudyalari uchun 65 yoshni tashkil etadi. Ushbu kiritilgan normalar sudyalar mustaqillagini kafolotlash, mamlakatimizda professional sudyalar korpusini shakllantirish, sud tizimini yetuk va malakali, odil sudlov sohasida katta tajribaga ega bo‘lgan, qo‘li va dili toza sudyalar bilan to‘ldirishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda, sud hokimiyatining boshqa hokimiyat organlari ta’siridan xalos bo‘lishiga xizmat qiladi.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalashda O‘zbekiston Respublikasi sudyalar oliy kengashining roli ham katta ahamiyatga ega bo‘lishi nazarda tutilmoqda. Oliy sudlov standartlariga doir o‘z tavsiyalari bilan mashhur Venesiya komissiyasi sudyalarni tayinlaydigan organ ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatdan mustaqil bo‘lishi zarurligini e’tirof etadi. Shu maqsadda, hokimiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minalash, siyosiy qarashlardan xoli va

boshqa tashqi ta’sirlardan himoyalangan organ sifatida Sudyalar Oliy Kengashi shakllantirildi. Kengash jami **yigirma bir nafar** kishidan iborat tarkibda: sudyalar; huquqni muhofaza qiluvchi organlar; fuqarolik jamiyati institutlari vakillari; huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan shakllantirilishi lozimligi mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti uchchala davlat hokimiyati organlariga nisbatan masofa saqlagani bois (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 89-moddasi) Kengash tarkibini shakllantirishda muayyan vakolatlarga ega. Qonunchilikka ko‘ra Kengash raisi Prezident tavsiyasi va Senat tasdig‘i asosida shakllantirilishi belgilandi.

Navbatdagi o‘zgartirish va qo‘srimchalardan biri sud hokimiyatining ikki oliy organi – Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudining sud tizimini boshqarishdagi vazifalarini takrorlanishiga barham beruvchi normadir. Uning mazmuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi birlashtirilib, fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy ish yuritushi sohasida sud hokimiyatining yagona organi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini tashkil qilish mustahkamlandi. Mazkur norma ikki sud o‘rtasidagi huquqiy ishlarning taalluqliligi borasidagi tortishuv va ziddiyatlarga chek qo‘yadi. Tegishli qonun hujjatlarini amaliyotda qo‘llash yuzasidan **yagona sud amaliyotini** ta’minlanishiga zamin yaratib, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolotlarini kuchaytiradi. Kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalarning navbatdagisi ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma’muriy nizolarni, shuningdek, ma’muriy huquqbazarliklarni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari, tuman (shahar) ma’muriy sudlari tashkil etilishiga doir bo‘lgan normadir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 110-moddada ma’muriy sud ishlarini yuritishga doir bo‘lgan masalani o‘z mazmunida mustahkmlagan edi. Biroq ularning tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabat biroz oqsayotgan edi. Ma’muriy sudlarni tuzish masalasini jadallashtirishgan yana bir omil – jinoyat qonuni normalarini liberallashtirish siyosati bo‘lib hisoblanadi. Qonunchilikda o‘z ifodasini topgan o‘zgartirish va qo‘srimchalardan yana biri bu – tumanlararo iqtisodiy sudlarning

tashkil etilishidir. Fuqarolar o‘rtasidagi iqtisodiy, fuqaroviy, ma’muriy va boshqa huquqiy nizolar xo‘jalik sudlari tomonidan ko‘rib chiqilar edi. Biroq ushbu toifadagi nizolar asosan viloyat xo‘jalik sudlarida birinchi va apellyatsiya bosqichlarida ko‘rilishi nazarda tutilgan edi. Xo‘jalik sudlarining faqatgina viloyat darajasida mavjudligi, ularning alohida tumanlardan uzoq masofada ekanligi tumanlararo iqtisodiy sudlarni tashkil etish zaruratini keltirib chiqardi. Navbatdagi o‘zgartirish va qo‘srimcha mamlakatimizda "Xabeas korpus" instituti qo’llanishini yanada kengaytirish doirasida kiritilgan bo‘lib, bu – prokurorlarning pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish va eksgumatsiya qilish kabi tergov harakatlarini o‘tkazishga sanksiya berish bo‘yicha vakolatlarining sudlarga o‘tkazilishi nazarda utilganligidadir. “Harakatlar strategiyasi”dan kelib chiqib, shaxslarning huquq va rkinliklarini himoya qilishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalardan biri, bu jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga qisqartilishidir. Shu bilan bir qatorda, qamoqqa olish va uy qamog‘i tarzidagi extiyot choralarini qo’llashning, shuningdek, dastlabki tergovning eng ko‘p muddati 1 yildan 7 oyga qisqartilishi, qamoqqa olish va uy qamog‘i choralarini qo’llanilayotgan shaxsning huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan. Inson huquq va erkinliklarini ustivor ekanligini tasdiqlovchi yana bir norma qo‘srimcha tergovning bekor qilinishi bo‘lib hisoblanadi. Bu qoida konstitutsiyaviy norma – aybsizlik prezumpsiyasining mantiqiy rivojlanishi bo‘lib, tortishuv va taraflar tengligi, haqiqatni anglash prinsiplari real ta’minlanishiga kafolat beradi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari institutining ishonchli kafolat etuvchi munosabatlardan yana biri, bu – mediatsiya – yarashtirish institutini takomillashtirishdir. Jismoniy va yuridik shaxslarga o‘zaro nizolarni suddan tashqarida, muqobil hal etish imkonining berilishi, avvalambor, fuqarolarga nizolarni qisqa muddatlarda yechilishini, shuningdek, ortiqcha mablag‘larning sarflanishiga chek qo‘yilishini, turli ovoragarchiliklarni oldini olinishi kabi imkoniyatlarni beradi. Bu vaziyatdan kutiladigan natija esa, taraflar orasidagi o‘zaro hurmat va ishbilarmonlik munosabatlarini saqlanib qolinishi bo‘lib hisoblanadi. Ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiliginи

takomillashtirish masalalariga oid munosabatlar qaysi yangi normalar bilan boyitildi? 2017 yil 9 yanvarda “Ma’muriy qamoqni o’tash tartibi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi, ma’muriy qamoqni o’tash tartibi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ma’muriy qamoq ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 29-moddasiga muvofiq 3 sutkadan 15 sutkagacha bo‘lgan muddatga, favqulodda holat rejimi sharoitlarida esa 30 sutkagacha muddatga qo‘llanishi nazarda tutilgan. Ma’muriy qamoqqa olish ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 21 ta moddasida ko‘zda tutilgan. Biroq, shu paytga qadar qonunda ma’muriy qamoq ko‘rinishidagi jazoni o‘taydigan joylar va ularning huquqiy mavqeい belgilanmagan edi. Qonun qabul qilingach, ma’muriy qamoqni o’tash tartibi bilan bog‘liq barcha munosabatlar huquqiy jihatdan tartibga solindi. 2017-yilning 19 yanvarida “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qaroriga asosan yuridik xizmat nufuzi oshirildi va yangi vazifalar bilan to‘ldirildi.

Xususan, yuridik xizmatga jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ta’sir etadigan davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari yuzasidan xulosalar berish;

Rahbariyatga faoliyatida qonun ustivorligi va qonuniylikni ta’minalash ahvoli yuzasidan hisobot taqdim etish;

Nizolar vujudga kelganda ularni sudgacha hal qilish choralarini ko‘rish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakati yoki harakatsizligi yuzasidan berilgan shikoyatlarning majburiy tartibda yuridik xizmatlar tomonidan ham ko‘rib chiqilishini belgilovchi va boshqa masalalarda ular mas’uliyatini oshirishga qaratilgan yangi funksiyalar yuklandi.

Yuridik xizmat xodimlarini lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish masalalarini majburiy tartibda adliya organlari bilan kelishish hamda adliya organlariga yuridik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik talablarini buzgan davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, shuningdek, yuridik xizmat xodimlariga nisbatan intizomiy ish yuritishni qo‘zg‘atish huquqini beruvchi

tartiblarning joriy etilishi har bir rahbarning mas’uliyatini kuchaytiradi. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda sud tizimining mustaqilligini ta’minlash, fuqarolarning daxlsiz huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish, odil sudlovning amaldagi mustaqilligiga erishish amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning “Islohot – inson uchun!” degan hayotiy shiorning amaldagi ifodasidir. Binobarin, ana shu tub yangilanishlar jamiyatimizda qonun ustivorligini ta’minlash bilan birga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli tarzda himoyalashga xizmat qiladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiylar to‘g‘risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?
2. So‘z va e’tiqod erkinligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida kafolatlangan?
3. Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida kafolatlangan?

### **5-Mavzu: “Buyuk kelajak dasturi”ning mazmun-mohiyati.**

#### **Reja:**

1. “Buyuk kelajak dasturi”ning qabul qilinishidan maqsad.
2. “Buyuk kelajak dasturi” ning mazmun-mohiyati.
3. Dasturda belgilangan maqsad vazifalarning amaliyotga jorish qilinishi.

**Tayanch tushunchalar:** Buyuk kelajak dasturi, Harakatlar strategiyasi, rivojlanish, strategiya, konsepsiya, innovasion rivojlanish.

Toshkentda O‘zbekiston Respublikasini 2035 yilgacha rivojlantirish strategiyasi loyihasi taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Uni «Buyuk kelajak» xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti KPMG auditor-konsalting kompaniyasi bilan birlgilikda ishlab chiqdi.

Taqdimot marosimida Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi,

Bosh prokuratura, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi, vazirlik va idoralar mas’ul xodimlari, «Buyuk kelajak» tashkiloti ekspertlar kengashi a’zolari ishtirok etdi, deya xabar beradi O‘ZA.

Strategiyadan maqsad mamlakatimizni dunyoning iqtisodiyoti rivojlangan 50 davlati qatoriga kiritishdir. Konsepsiya loyihasi davlat boshqaruvini isloh etish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish, innovatsiya va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash kabi asosiy yo‘nalishlardan iborat.

Yangi strategiya kelasi 17 yilga mo‘ljallangan bo‘lib, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida yuqori natijalarga erishishni nazarda tutadi.

Loyihaning davlat boshqaruvini isloh qilish yo‘nalishida qonunchilik bazasini takomillashtirish, sud tizimini isloh etishni davom ettirish, aholi siyosiy madaniyatini yuksaltirish, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va davlat boshqaruvi institutlarini takomillashtirish vazifalari belgilangan. Bularning bari O‘zbekistonning xalqaro indekslardagi o‘rnini yuksaltirishga imkon berishi lozim.

Iqtisodiyotda sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi va qishloq xo‘jaligini ravnaq toptirish rejalashtirilmoqda. Tadbirkorda tashabbuskorlikni kuchaytirish, moliyaviy resurslar bilan ta’minalash kabi omillarga alohida e’tibor qaratiladi. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hisobiga 2035 yilga borib mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 479 mlrd dollarga yetkazilishi kutilmoqda.

Ijtimoiy sohada ta’lim tizimi va mehnat bozori hisobiga inson kapitalini rivojlantirish, ilg‘or fikrlaydigan yangi avlodni shakllantirishga e’tibor qaratish taklif qilingan. Aholining barcha qatlamlarini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish masalalari o‘z yechimini topadi. Ilm-fan va innovatsiya faoliyati rivojlantiriladi.

Ustuvor maqsadlar sirasida atrof-muhitni asrash, mamlakatning milliy brendini xalqaro miqyosda ommalashtirish ham tilga olingan.

Loyiha aholining keng qatlamlari, vazirlik va idoralar, ekspert-tahliliy doiralar o‘rtasida, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida keng muhokama qilinadi.

«BUYUK KELAJAK» xalqaro nodavlat notijorat tashkilotini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning xorijda yashayotgan yurtdoshlarimizni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga daxldor bo‘lishlariga qilingan da’vatlariga javob bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘maklashmoqchi bo‘lgan barchaning sa’yi-harakatlarini birlashtirish, davlat va jamiyatni har tomonlama va jadal rivojlantirish maqsadida 2018 yilning aprel oyida «BUYUK KELAJAK» XNNT tashkil etilgan edi. «BUYUK KELAJAK» XNNT faoliyatining modeli ilg‘or xalqaro tajriba, O‘zbekiston bozorlarini xolisona tahlil qilish, eng asosiysi, yetakchi dunyo mutaxassislarining shaxsiy tajribasi negizida qurilgan. Xorijda yashayotgan va tahsil olayotgan, o‘z kasbiy faoliyatini O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirib kelayotgan kelib chiqishi O‘zbekistonlik bo‘lgan – turli sohalarning yetakchi mutaxassislaridan iborat Ekspert kengashi «BUYUK KELAJAK» XNNT asosiy intellektual salohiyati va aktivi hisoblanadi. Bugungi kunda Ekspert kengashi 20 tadan ziyod mamlakatlarda, shu jumladan Rossiya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Kanada, Daniya, Shveysariya, BAA, Saudiya Arabistoni, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiyu, Turkiy, Qozog‘iston, Finlyandiya va boshqa davlatlarda yashab kelayotgan 190 dan ko‘proq mutaxassis yurtdoshlarimizni o‘zida birlashtirgan. «BUYUK KELAJAK» XNNT o‘z maqsadlariga erishish uchun ushbu bosqichda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: xalqaro tashkilotlar va ekspertlar, fuqarolik jamiyatlar va institutlarning tajribasini o‘rganish asosida, xorijda va O‘zbekiston Respublikasida ishlab kelayotgan yurtdoshlarimizning fikrlarini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli rivojlanish modelini ishlab chiqish va amalga oshirilishiga ko‘maklashish; aniq tashabbuslar hamda qonunchilik va me’yoriy hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha tavsiyalarni ko‘rsatgan holda, tatbiq etish bosqichlariga bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli rivojlanish modelining strategiyasini joriy etish bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish. turmush darajasini oshirishga, inson

kapitalining sifatini yaxshilashga, uzoq muddatli investitsiyalar bozorini rivojlantirishga va davlat hokimiyati institutlarini isloh qilishga urg‘u bergen holda, «BUYUK KELAJAK» XNNT 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarga ekspertli qo‘llab-quvvatlashni ham ko‘rsatib keladi.

*"Buyuk Kelajak" eksperti Nur Parpiev O‘zbekistonda ikki fuqarolikni joriy etish taklifi bilan chiqdi. Uning bu haqdagi maqolasi O‘zA tomonidan e’lon qilindi. Quyida maqola to‘liq holda keltiriladi.*

O‘zbekiston tashqarisida juda ko‘p o‘zbekistonliklar istiqomat qiladi. Ularning katta qismi xorijda doimiy yashaydi va yashayotgan davlatining fuqaroligini olishgan. Vatanimizdagi ijtimoiy va siyosiy islohotlar, tabiiyki, xorijdagi o‘zbekistonliklarning ham diqqat markazida. Yonlarida boshqa davlatning pasporti bo‘lsa-da, ular O‘zbekiston pasportini asrab-avaylashadi. Ular uchun istagan paytda oilasi va qarindosh urug‘lari yashayotgan mamlakatga bemalol, hech qanday taqiqsiz borib-kelishi muhim masala. Hukumat esa xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar tug‘ilib-o‘sgan yurtiga emin-erkin kelib-ketishlari uchun imkoniyatlar yaratyapti. Joriy yilning 17 aprel kuni hukumat tomonidan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilishni rasmiylashtirish, ko‘p martalik kirish vizalarini berish hamda ularni ichki ishlar organlari tomonidan vaqtincha propiska qilish» tartibi to‘g‘risidagi nizom yaratilayotgani ana shunday imkoniyatlardan biri. O‘zbekistonga bugun yangi texnologiyalar, investitsiyalar, g‘oyalar kerak. AQSh, Gollandiya, Germaniya, Avstraliya va boshqa ilg‘or davlatlar fuqaroligini olgan, o‘z biznesiga ega bo‘layotgan o‘zbeklar bugun O‘zbekistonga to‘sqliarsiz, qog‘ozbozliklarsiz borib, o‘sha yerda ham mamlakat rivoji uchun dalda bo‘ladigan loyihibalarini amalga oshirishlari kerak. Agar O‘zbekiston hukumati ikki fuqarolikka ruxsat bersa, boshqa davlat fuqaroligini olgan ko‘plab o‘zbekistonliklar mamlakat iqtisodiga, rivojiga katta hissa qo‘sha oladi. Xorijda yashab, o‘sha yerda o‘zini tiklab olib, biznesini yaratgan, o‘zi va yaqinlari uchun to‘kin-sochin hayot va osuda sharoit

yaratib, bir necha yuz odamni ish bilan ta’minlagan vatandoshlar oz emas. Shunday bo‘lsa ham, ularning o‘y-xayollari vatanda. Ular O‘zbekistonda ham o‘z bizneslarini ochishni, insonlarga farovonlik keltirishni o‘ylab yashashadi. Buning uchun esa shunga yarasha qonunlar va qarorlar qabul qilinishi ayni muddao. Ikki fuqarolik – bugun xorijda yashayotgan juda ko‘p o‘zbekistonliklar uchun dolzarb mavzu. Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgacha AQShning “Green card” dasturi g‘olibi sifatida bu mamlakatga 100 mingdan ziyod o‘zbekistonliklar kirib kelgan. Ularning orasida AQSh fuqaroligini olganlar yildan yilga ko‘payib bormoqda. AQShga qo‘shti Kanadada ham minglab o‘zbekistonliklar “kanadalik” bo‘lib ulgurishgan. Yevropa mamlakatlari, Rossiya, Avstraliyada ham mahalliy fuqarolikni olib, nafaqa yoshiga qarab ketayotgan o‘zbekistonliklar ko‘p. Ayni paytda ular o‘z tarixiy vatani bo‘lgan O‘zbekiston fuqaroligidan voz kechishni tasavvur ham qila olmaydi. Ular nafaqaga chiqqach, O‘zbekistonga qaytib borib, o‘zi tug‘ilib-o‘sgan joylarda umrguzaronlik qilishni orzu qilishadi.

**Ikki fuqarolik O‘zbekistonga nima beradi?** AQSh, Kanada va boshqa mamlakatlarda nafaqaga chiqqan o‘zbekistonliklarda ikki fuqarolik bo‘lsa, ular O‘zbekistonga nima beradi dersiz? Gap shundaki, AQSh, Kanada kabi taraqqiy etgan mamlakatlar fuqarolarining nafaqasini, ular qaysi mamlakatda bo‘lsa, o‘sha davlatga yetkazib beradi. Rivojlangan mamlakatlar fuqaroligini olgan ko‘plab muhojirlar o‘sha mamlakatda nafaqaga chiqadi. Ularning aksariyati nafaqaga chiqqach, o‘zi tug‘ilib-o‘sgan yurtga chiqib ketadi. Ular o‘z nafaqalarini vatanida olib, o‘sha yerda sarflashadi. Ana endi tasavvur qiling, chet ellarda yashab, o‘sha davlat fuqaroligini olgan o‘zbekistonliklar yurtiga qaytib, chet eldag‘i nafaqasini O‘zbekiston banklari orqali olib tursa, mamlakat iqtisodiga qanchalik dalda bo‘ladi?! Rivojlangan mamlakatlardagi nafaqa miqdori esa, ishoning, kam emas...Xorijda nafaqaga chiqqan o‘zbekistonliklarni vatanga bemalol borib kelishlari uchun O‘zbekiston hukumati sharoit yaratса, foydadan xoli bo‘lmaydi.

### **Bugun tarix takrorlanmoqda**

O‘zbekiston o‘zining tarixiy-me’moriy obidalari, ajoyib iqlimi va geografik joylashuvi bilan dunyodagi rivojlangan mamlakatlar diqqatini tortmoqda. Asrlar

mobaynida bu yurt Buyuk ipak yo‘lining muhim bo‘g‘ini sifatida ilm va savdo ahlining, turli sarkarda-yu buyuk ulamolarning qadami yetgan maskan bo‘lgan. Bugun tarix yana takrorlanmoqda. Dunyo ahli maftunkor sayyohlik yo‘nalishiga aylanib borayotgan mamlakatni ayni paytda jahon ilmiy, madaniy va tarixiy yo‘nalishlari tutashgan eng jozibali nuqta deb atashmoqda. Shunday ekan, mamlakatda ikki fuqarolikka yo‘l ochilsa, uning xorijdagi ijobiy imiji yanada oshadi, mamlakatga kelayotgan turistlar oqimi yanada ko‘payadi va bu sayyoohlarning katta qismini xorijda yashayotgan o‘zbekistonliklarning o‘zi tashkil qiladi. Chet elda doimiy yashayotgan o‘zbekistonliklar hisobiga har yili turistik sarmoyaning mo‘tadil oqimi kirib keladi. Sarmoyasi bor o‘zbekistonlik vataniga borgach, nima qiladi? Albatta, u birinchi navbatda chiroylu uy-joy qiladi, yaqinlarining yashash sharoitini yaxshilaydi, avtomobil oladi, savdo-sotiqni yo‘lga qo‘yadi, o‘zi va yaqinlarining farzandlari ilm olishini kafolatlaydi. Bundan tashqari, ikki fuqarolik berilishi orqali yangi soliq turini yo‘lga qo‘yish mumkin.

### **“O‘lsam, o‘z vatanimga olib borib ko‘minglar”**

Ba’zilar ikki fuqarolikka ruxsat berilishi Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyatga salbiy ta’sir qiladi, deb o‘ylashi mumkin, biroq AQSh, Fransiya, Shveytsariya kabi ilg‘or va rivojlangan davlatlar tajribasi bunday xavotirlarning asossiz ekanini ko‘rsatmoqda. Isroil tajribasiga ko‘ra esa, ikki fuqarolikka ega vatandoshlar qaerda bo‘lmisin, tarixiy vatani foydasini o‘ylab ish qiladi, ikkinchi vatanda yuqori martabalarga erishib ham Isroil manfaatlarini unutmeydi.

O‘zbeklar azaldan yurtini, tug‘ilgan yerini qadrlaydi. “O‘lsam, o‘z Vatanimga olib borib ko‘minglar”, deyishadi xorijda ham. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Buyuk kelajak” ekspertlar guruhining a’zosi sifatida ikki fuqarolik haqidagi ushbu taklifni o‘rtaga tashlar ekanman, taklifim O‘zbekiston taraqqiyotiga har tomonlama foyda keltirishiga aminman. Nur Parpiev, "Buyuk Kelajak" eksperti.

Ma’lumot uchun: Nur Parpiev 1988 yilda Qirg‘izistonda tug‘ilgan. 2014 – 2018 y.y. Kolumbiya okrugi Universitetida biznes-menejment va moliya

yo‘nalishida, 2011 – 2013 y.y. Montgomeri kollejida xalqaro biznes yo‘nalishida ta’lim olgan.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qachon qabul qilingan?
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ikkinchi ustuvor yo‘nalishi qaysi?
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi uchinchi ustuvor yo‘nalishi qaysi?
4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi qaysi?

### **6-Mavzu: “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, konseptual g‘oyasi –**

### **O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni**

### **hayotga tadbiq etishning asosi.**

#### **Reja:**

1. “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” g‘oyasining mazmun mohiyati.
2. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati.
3. “Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash” g‘oyasi ostida targ‘ibot tadbirlari-ning o‘tkazilishi.

**Tayanch tushunchalar:** inson, manfaat, islohot, dunyoqarash, Harakatlar strategiyasi, rivojlanish, strategiya, konsepsiya, innovasion rivojlanish.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev Asosiy Qonunimiz qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda “Bugun hayotimizning o‘zi

Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad — inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda”, deya inson manfaatlarini ta’minlash uchun, avvalo, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerakligiga alohida urg‘u bergen edi.

Davlat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish, jamiyatda barqarorlikni, ijtimoiy adolatni qaror toptirishning muhim sharti bo‘lgan mazkur vazifani amalga oshirishda parlament vakillarining ham ishtiroki hamda faolligi yaqqol namoyon bo‘layapti.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari hududlarda bo‘lib, haqiqiy ahvolni o‘rganmoqdalar, aholining haqli talab-istiklaridan kelib chiqqan holda, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning to‘g‘ri yechimini ta’minlashayotir.

Ana shu ezgu maqsad yo‘lida parlament a’zolaridan iborat ishchi guruhlari Andijon viloyatining Baliqchi tumanida ham bo‘lib, xalqning turmush farovonligini yuksaltirish, inson manfaatlari ustuvorligini kafolatlashga qaratilgan huquqiy hujjalarning ijrosi yuzasidan o‘rganishlar olib bordi. Xalq deputatlari Baliqchi tumani Kengashining navbatdagi sessiyasida ushbu o‘rganishlar natijalari qizg‘in muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, ishchi guruhlari hududdagi 900 ga yaqin xonadonlarga, qariyb ellikta mahalla fuqarolar yig‘inlariga, davlat idoralari va o‘ttizdan oshiq ijtimoiy soha ob’ektlariga tashrif buyurdi.

Oilalarning turmush sharoiti bilan yaqindan tanishish davomida fuqarolar tomonidan ko‘tarilgan 500 dan ziyod muammo hamda masalalarning 60 tasi joyida hal qilindi. Qolganlarini kechiktirmasdan, qonuniy tartibda ko‘rib chiqish mutasaddilar zimmasidagi asosiy vazifa qilib belgilandi. Viloyat darajasidagi 38 ta, respublika darajasidagi 8 ta masala yuzasidan deputatlik va senatorlik so‘rovlari tayyorlandi.

Ma’lum bo‘lishicha, Baliqchi tumani aholisini ko‘proq uy-joy, kommunal, transport va yo‘l qurilishi, sog‘liqni saqlash, doimiy ishga joylashish, pensiya

hamda nafaqa -ta’mnoti, bank-kredit sohalari bilan bog‘liq muammolar o‘ylantirmoqda.

Ishchi guruhlari, shuningdek, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati bilan atroficha qiziqdilar. Kuzatishlar natijasida tumandagi 22 ta foydalanilmay turgan bino-inshoot va ular joylashgan 6,6 hektar yer maydonidan unumli foydalanish, ularni “nol” xarid qiymatida tadbirkorlarga berish maqsadga muvofiq, deb topildi. Yuridik shaxslarning soliqdan boqimanda qarzdorligi masalasi ham tez fursatda o‘z yechimini topmog‘i kerak. Zero, bu raqam 2017 yilning 1 iyun holatiga ko‘ra, qariyb 13 milliard so‘mni tashkil etayotir. Qarzdorlikning asosiy qismi “Chinobod paxta tozalash” AJga, “Baliqchi pilla” MChJga va qator fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa, o‘z navbatida, soliq inspeksiyasi va iqtisodiy soha tashkilotlari xodimlari tomonidan soliqqa tortish bo‘yicha aholi hamda tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida yetarlicha muloqot va targ‘ibot ishlari olib borilmayotganidan dalolat beradi.

Transport, yo‘l qurilishi borasida qilinayotgan ishlarni ko‘ngildagidek, deb bo‘lmaydi. Misol uchun, hududda 63 kilometrdan iborat piyodalar yo‘lakchasi mavjud, shundan 16 kilometri ta’mirtalab. 89 ta bekatdan 45 tasini qayta barpo etish lozim. 4 ta ko‘prikda ta’mirlash ishlarini bajarish, 45 kilometr yo‘lni qayta qurish zarur. Aynan shu masalalar bo‘yicha tuman va viloyat Xalq qabulxonalariga fuqarolar tomonidan o‘ndan ziyod arizalar kelib tushgan.

Yig‘ilish ishtirokchilari hududda savdo xizmati ko‘rsatish, tibbiyat, ta’lim muassasalari ishini, elektr energiyasi, ichimlik suvi ta’mnotinini yaxshilash, uy-joy mulkdorlari shirkati, obodonlashtirish sohalarida mas’uliyatsizlik, sansalorlik kabi illatlarga to‘la barham berish uchun mas’ul idora hamda tashkilotlarning, korxonalarning rahbar va mansabdor shaxslari bugungi kun talabini chuqur his etmog‘i, inson manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘ymog‘i kerakligini ta’kidladilar.

Sessiyada muhokama etilgan masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Bugungi kunda Xalq qabulxonalari davlat organlari bilan aholi o‘rtasida ochiq muloqotlarni yo‘lga qo‘yish, dolzarb muammolarni aniqlash, murojaatlarning

qonuniy va sifatli ko‘rib chiqilishini ta’minlashda samarali mexanizmga aylangani “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan tamoyil amaliyotga izchil tatbiq etilayotganidan dalolat beradi. Xo‘s, joylarda Xalq qabulxonalari qanday faoliyat olib borayapti? Muammo va kamchilar yuzasidan murojaat etayotgan yurtdoshlarimiz inson manfaatlari yo‘lida xizmat qilayotgan bunday qabulxonalar ko‘magidan mamnunmi? Yuqoridagi savollar bilan Chirchiq shahar Xalq qabulxonasi mudiri Jasur Xo‘jayorovga murojaat qildik.

— Prezidentimizning “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni asosida faoliyat yuritayotgan Xalq qabulxonalari aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishga qaratilgan murojaatlar bilan ishslashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Chirchiq shahar Xalq qabulxonasi faoliyati misolida oladigan bo‘lsak, 2018 yil davomida 1778 ta murojaat kelib tushdi. Ulardan 1237 tasi qanoatlantirildi. Qolgan qismi esa hal etish uchun tegishli tashkilotlarga yuborildi. Ushbu murojaatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ulardan 246 tasi ichki ishlar faoliyati, 248 tasi uy-joy va yer bilan ta’minlash, 35 tasi pensiya va nafaqa ta’mnoti, 185 tasi ish bilan ta’minlash, 189 tasi gaz, elektr, suv, issiqlik ta’mnoti, 95 tasi prokuratura faoliyatiga oid, 61 tasi sud masalalari, 39 tasi moddiy yordam ajratish, 16 tasi bank-moliya masalalari, 16 tasi kredit olish, 72 tasi sog‘liqni saqlash, 31 tasi maktab ta’limi, 22 tasi kommunal to‘lovlarini hisoblashda yuzaga kelgan muammolar, 43 tasi sud ijrosiga doir, 19 tasi soliq to‘lovlar, 25 tasi tadbirkorlar huquqlarining buzilishi, 32 tasi aliment masalasi, 14 tasi qurilish sohasi, 5 tasi yo‘l qurilishi, 12 tasi transport xizmati va 339 tasi boshqa masalalarni tashkil qiladi. Shu o‘rinda, yuridik va jismoniy shaxslarning muammolari qanday hal etilgani xususida ham to‘xtalib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mana, bir misol: “Ipoteka-bank” ATIBning Toshkent viloyati filiali bilan B.Bakiev rahbarlik qilayotgan “Al-Bekzod” xususiy korxonasi o‘rtasida kredit ajratish bo‘yicha

shartnoma imzolangan. Lekin shunga qaramasdan, bank filiali kredit ajratishni paysalga solib kelgan. B.Bakievning murojaatidan so‘ng Chirchiq shahar Xalq qabulxonasi aralashuvi bilan ushbu masala ijobiy yechim topdi. “Ipoteka-bank” ATIBning Toshkent viloyati filiali tuzilgan kredit shartnomasi bo‘yicha asbob-anjomlar sotib olish uchun 224 377 113 so‘m miqdoridagi mablag‘ “Al-Bekzod” xususiy korxonasi hisob raqamiga o‘tkazib berilishini ta’minladi.

Chirchiq shahrida istiqomat qilayotgan Dilafruz Muhamedova esa “Birovning hojatini chiqaray” deb, aldanib qoladi. Uning 3 million so‘m pulini olgan Sardor Qunduzov turli bahonalar bilan qarzni qaytarishni ortga surib kelavergan. D.Muhamedova ushbu holat yuzasidan Chirchiq shahar Xalq qabulxonasiga murojaat qildi. Shahar ichki ishlari bo‘limi va jinoyat ishlari bo‘yicha Chirchiq shahar sudi xodimlarining sa’y-harakati bilan 3 million so‘m egasiga qaytarildi. Firibgar tegishli jazosini oldi.

Xalq ichiga kirib borish, kamchiliklarni o‘rganish, muammolarni bartaraf etish orqali fuqarolarning ishonchini qozonish maqsadida Chirchiq shahar Xalq qabulxonasi va shahar sektor rahbarlari hamkorligida 2018 yil davomida 80 marta sayyor qabul tashkil etilib, fuqarolardan kelib tushgan murojaatlardan 434 tasi qanoatlantirilgan, 353 tasi yuzasidan huquqiy maslahat va tushuntirish berildi, 404 tasi sektor rahbarlari tomonidan ijroga qaratildi. Chirchiq shahar rahbariyati, jumladan, shahar hokimi, prokuror, IIB boshlig‘i va boshqa idoralar rahbarlari tomonidan ham muntazam fuqarolar qabullari tashkil qilinib, aniqlangan muammo va kamchiliklar bartaraf etib kelinmoqda. Mansabdor shaxslar tomonidan murojaatlar bilan ishslashda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan 10 nafar shaxsga nisbatan javobgarlik choralar ko‘rildi, ulardan 2 nafari ma’muriy va 8 nafari intizomiy javobgarlikka tortildi.

Joriy yildagi muhim yangiliklardan yana biri, davlatimiz rahbarining 2019 yil 17 yanvardagi “Aholi muammolari bilan ishslash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, 2019 yil 1 fevraldan Xalq qabulxonalarining aholi murojaatlari bilan ishslash bo‘yicha amaldagi tizimi bilan bir qatorda Xalq qabulxonalarining muammolarni uyma-uy yurish orqali aniqlash

va hal qilishini, davlat organlarining aholi bilan bevosita ishlashini nazarda tutuvchi yangi tizim joriy qilindi. Ushbu yangi tizim, shubhasiz, davlat idoralari xalqimizga yanada yaxshiroq xizmat qilishini yangi bosqichga olib chiqadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi mazmundorligi va ahamiyati, biz yashayotgan murakkab davrning eng dolzarb mavzularini qamrab olganligi bilan ajralib turdi. Xususan, unda bildirilgan tashabbuslarning muhimligi hamda o‘z vaqtida ilgari surilganligi BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish tomonidan ham e’tirof etilgani O‘zbekistonimizning har bir fuqarosiga cheksiz faxr-iftixor bag‘ishladi.

Ayniqsa, bugungi kunda yoshlar masalasining dolzarbligi va Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish bo‘yicha ilgari surgan taklifi hech kimni befarq qoldirmadi. Chunki yoshlar masalasi davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakatimizda navqiron avlodga beqiyos g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda. Xususan, 2016 yil 14 sentyabrda imzolangan yangi tahrirdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun buning yaqqol dalilidir. Unda yoshlarga zamonaviy ta’lim olish, uy-joy xarid qilish, oila qurish uchun imtiyozli kreditlar olishda katta imkoniyatlar, tizimli ijtimoiy kafolatlar nazarda tutilgan.

Nutqda yoshlar muammolariga yetarli e’tibor qaratmaslik xalqaro terrorizm hamda ekstremizm tahdidlarining ortishiga olib kelishi muqarrarligi alohida aytib o‘tildi. Zotan, dunyo miqyosida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizi bevosita jaholat bilan uyg‘un bo‘lib, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, ekstremistik faoliyat hamda zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmaganlar tomonidan sodir qilinmoqda. Shu ma’noda, barchaning, avvalo, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir.

Prezidentimiz BMT yuksak minbaridan turib, “Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqr islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko‘zlangan maqsad — “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan, oddiy va

aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat”, deya barchaning e’tiborini mamlakatimizda izchil olib borilayotgan tizimli islohotlarga qaratdi.

Shuningdek, “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”, degan shiorlar nufuzli xalqaro anjuman ishtirokchilarida katta qiziqish uyg‘otdi. BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini tayyorlash, Bosh Assambleyaning “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish bo‘yicha takliflari ham barchaning diqqat-e’tiborini tortdi.

Yurtboshimizning “Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta’minlashdan iborat bo‘lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish”, degan so‘zлari ham millati hamda e’tiqodidan qat’i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir insonda yana bir bor chuqur hurmat va ehtirom hissini teranlashtirdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan yana bir muhim masala — millatimizga xos bo‘lgan azaliy yaqin qo‘schnichilik hamda o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarga katta e’tibor qaratildi. Buning amaliy natijasi ayni paytda qo‘sjni davlatlar bilan do‘stona aloqalar izchil yo‘lga qo‘yilayotganida yaqqol ko‘rinadi. So‘nggi davrda o‘zaro ishonch oshdi, savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalar yanada rivojlanmoqda.

Shu bilan birga, nufuzli minbardan O‘zbekistonning bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslik borasidagi amaliy sa’y-harakatlari, buning samarasi to‘g‘risidagi fikrlar ham yangradi. Bu bugun mamlakatimizning mehnat sohasidagi xalqaro majburiyatlariga mas’uliyat bilan yondashayotganligini namoyon etdi.

Umuman, Prezidentimiz O‘zbekistonning ichki hamda tashqi siyosati asosiy parametrlarini dunyo hamjamiyati e’tiboriga havola qildi. Muhimi, bu xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq kutib olindi.

Ishonamizki, O‘zbekistonning adolatli davlat barpo etishga qaratilgan sa’y-harakatlari nafaqat fuqarolarimizning manfaatlari ta’minlanishiga, balki mintaqada, dunyoda adolat muhiti mustahkamlanishiga, do’stona munosabatlar qaror topishiga zamin yaratadi. Zero, davlatimiz rahbarining AQShga tashrifi tom ma’noda tarixiy voqeа bo‘lib, Vatanimiz manfaati, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

**Nazorat uchun savollar.**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?
2. O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?
3. So‘z va e’tiqod erkinligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi muddasida kafolatlangan?
4. Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi muddasida kafolatlangan?
5. Fuqarolik jamiyati institutlarining majmuini yana qanday nomlash mumkin?
6. Sudyalar oliy maktabi qanday organning huzurida tashkil etildi?

**7-Mavzu. “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g‘oyalari – O‘zbekiston taraqqiyotining asosi.**

1. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbiq etish.
2. “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” g‘oyasining amaliyotga joriy etilishi.
3. “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” g‘oyasining ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar:** rivojlanish, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, siyosiy rivojlanish, islohot, jamoatchilik nazorati.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi tomonidan Toshkent viloyatining Qibray tumanida uyushmagan yoshlar vakillari, mahalla faollari, boshlang‘ich partiya tashkilotlari, yosh tadbirkorlar, ijtimoiy soha xodimlari va keng jamoatchilik ishtirokida “**O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar: yutuqlar va istiqboldagi rejalar**” mavzusida davra suhbatি o‘tkazildi. Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma olti yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori mazmun-mohiyati va unda belgilab berilgan vazifalar ijrosiga qaratildi. Buyuk va bebahone’mat - mustaqillikning milliy taraqqiyotimiz, bugungi va kelgusi avlodlar taqdiri, kelajagi uchun beqiyos ahamiyati yillar o‘tishi bilan tobora ortib borayotganligi, O‘zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning milliy manfaatlarini, tinch va osuda hayotini ta’minlash, mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishning mustahkam poydevori bo‘layotganligi tadbirda e’tibor qaratilgan asosiy masala bo‘ldi. Tadbir ishtirokchilari tomonidan ta’kidlanganidek, yurtimizda iqtisodiy sohada olib borilgan islohotlar natijasida oxirgi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti 6 barobarga, aholining real daromadlari 11 barobarga oshishiga erishildi. 2016 yilda mamlakatimiz YaIM ning 56,9 % KB va XT sub’ektlari hissasiga to‘g‘ri keldi. 2016 yilda kichik biznesning sanoatdagi ulushi esa 45 % gacha oshishiga erishildi. Xozirgi kunda ish bilan band aholining 78% mazkur tarmoqda mehnat qilmokda. Bularning barchasi mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga bo‘lgan e’tibor, ya’ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslarining yildan-yilga mustahkamlab borilayotganidadir. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari yurtimizda mustaqillik yillarida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini, erishilgan yutuqlarni aniq misollar asosida tahlil qilib, “**Xalk boy bo‘lsa, davlat xam boy va kudratli bo‘ladi**” degan g‘oyani hayotimizda aks ettirish yo‘lida aholi, ayniqsa, yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, oilaviy biznes va kasanachilikni, tomorqa ho‘jaligini rivojlantirish uchun yangi imkoniyat va preferensiyalar yaratib

berilayotganligi, yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati haqida o‘z fikr mulohazalarini bildirib o‘tdilar. Xususan, Prezidentimizning 5.10.2016 yildagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni ijrosi doirasida qabul qilingan va joriy yilning 1 yanvaridan e’tiboran kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonuni xususida to‘xtalib o‘tdilar. Ushbu hujjat mamlakatimizda tadbirkorlikka keng yo‘l ochish, tadbirkorlar faoliyatiga aralashuvlarga yo‘l qo‘ymaslik, bu boradagi huquqiy kafolatlarni kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Tadbirda shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar muhokamasi qizg‘in tus oldi. So‘nggi yillarda sohani yanada takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan sa’yi-harakatlar samarasi o‘laroq aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirishga erishilayotgani ishtirokchilar tomonidan e’tirof etildi. Xususan, oxirgi o‘n oy ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘liqni saqlash sohasiga oid 23 ta Farmon, qaror va farmoyishlari qabul qilindi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar asosida tibbiyot sohasidagi mavjud ayrim kamchilik va muammolar o‘z yechimini topmoqda. Bunda parlament nazoratining yo‘lga qo‘yilishi tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlar mas’uliyatining oshishiga xizmat qilmoqda. Tashkilotchilar tomonidan ishtirokchilarga Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha HARAkatlar STRATEGIYaSI”da iqtisodiyotni liberallashtirish va ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan vazifalar hamda ularning joriy yilning 6 oyidagi ijrosi haqidagi ma’lumotlar, istiqboldagi rejalar atroflicha tushuntirildi. Tadbirda jamoat tashkilotlari, boshlang‘ich partiya tashkilotlari rahbarlari, mahalla faollari, uyushmagan yoshlar va yosh tadbirkorlar vakillari tomonidan mavzu yuzasidan berilgan savollarga Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan tegishli javoblar qaytarildi. Tadbirda ijtimoiy sohalarda faoliyat olib borayotgan xodimlarning bildirgan takliflari va mulohazalari

tinglandi. Hozirgi kunda olib borilayotga islohotlardan ko‘zlangan pirovard maqsad bitta – xalqimizni hayotdan rozi qilish, boy qilish. Bunga odamlarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka o‘rgatish, kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, teng va adolatli qonuniy imkoniyatlar yaratish orqali erishish mumkin. Zotan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” chunki davlatning asosi xalqdir. Xalq bo‘lmasa davlat ham bo‘lmaydi. 2020 yil 8 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4742-sonli qarori qabul qilindi. Qarordan asosiy ko‘zlangan maqsad aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo‘sishma shart-sharoitlarni yaratishdir. Ushbu qarorda 2020 yil 1 iyuldan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxati bir nechtaga kengaytirildi hamda 2020 yil 1 iyuldan boshlab quyidagilar joriy etiladi: o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni ro‘yxatga olish xabar berish tartibida o‘zini o‘zi band qilgan sifatida ro‘yxatdan o‘tganlikni tasdiqlovchi matrisali shtrix kod (QR-kod) bergen holda maxsus mobil ilova yoxud soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi hamda vaqtinchalik mehnat guvohnomalarini berish tartibi bekor qilinadi; o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar 2020 yil uchun ijtimoiy soliqni o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida haqiqatda ishlagan vaqtidan qat’i nazar bazaviy hisoblash miqdorining kamida 50 foizi hajmida to‘laydi hamda ushbu summa to‘liqligicha byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga yo‘naltiriladi va undan kelib chiqqan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o‘rnatilgan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanadi; O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi qonunning 7-moddasida Yoshga doir pensiya olish huquqiga: erkaklar — 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda; ayollar — 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar Pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 7 yil ish staji

mavjud bo‘lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki fuqaro 7 yil o‘zini o‘zi band qilsa pensiya olish huquqiga ega bo‘ladi. Internet tarmog‘i orqali xizmatlar ko‘rsatuvchi (ishlar bajaruvchi) o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun chet eldag‘i jismoniy va yuridik shaxslar — norezidentlardan xorijiy valyutadagi to‘lovlarni Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga tegishli ma’lumotlarni kiritmagan holda O‘zbekiston Respublikasining banklaridagi hisob raqamlariga qabul qilish; Ushbu imtiyoz Internet tarmog‘i orqali pul topuvchilarni ishini osonlashtiradi. kontrakt tuzmasdan, kelishuv to‘g‘risidagi ommaviy taklifni (oferta) qabul qilish yoki elektron yozishmalar almashish yoxud hisob-kitob fakturalarni (invoys), shu jumladan elektron shaklda taqdim qilish yo‘li bilan chet ellik jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko‘rsatish (ishlar bajarish); o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun nazarda tutilgan faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi, ishtirokchilari soni kamida uch nafar bo‘lgan oilaviy korxonalar aylanmadan soliqni belgilangan miqdordan 50 foizga kamaytirilgan stavkada to‘laydilar. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Adliya vazirligi va Savdo-sanoat palasasi 2021 yilda tadbirdorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni osonlashtirish, shu jumladan quyidagilarga imkon yaratuvchi servislardan real vaqt rejimida foydalanishga yordam beradigan «Biznes navigator» axborot tizimini joriy qilishi belgilangan bo‘lib unda: tadbirdorlik faoliyatining tegishli hududdagi raqobatbardosh turini tanlash; kredit olish uchun zarur bo‘lgan biznes-reja loyihasi va hujjatlar to‘plamini shakllantirish; tegishli tadbirdorlik faoliyati uchun taqdim etilgan imtiyoz va preferensiyalar to‘g‘risida ma’lumot olish; tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ko‘chmas mulk ob’ektlarini tanlash imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydi. Mazkur qaror aholining doimiy bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish hamda norasmiy ish o‘rinlarini rasmiylashtirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoevning AQShga tashrifini mamlakatimiz va xorijiy davlatlar ekspertlari shunday baholamoqda. 2017 yil 19 sentabr kuni Nyu-Yorkda Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasiga tashrif buyurgan davlat va hukumat rahbarlari sharafiga rasmiy qabul marosimi o‘tkazildi.

Marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev rafiqasi bilan ishtirok etdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Amerika Qo‘shma Shtatlariga tashrifi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi yurtdoshlarimizga cheksiz g‘urur-iftixor bag‘ishladi. Bu mazkur tashrif anchadan buyon kutilgani, Prezidentimizning nutqi odamlarning qalbidan, tafakkuridan chuqur joy olganidan dalolatdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 193 mamlakatni birlashtirgan eng yirik xalqaro tuzilma. Bosh Assambleya uning asosiy organi. Bosh Assambleya sessiyasida dunyo yetakchilari yig‘iladi, ishtirokchilar va tadbirlar ko‘pligidan har bir soniya hisobli bo‘ladi. Shu bois uning kun tartibidan eng muhim, xalqaro ahamiyatga molik masalalar o‘rin oladi. Bosh Assambleyaning 72-sessiyasi kun tartibiga 170 dan ortiq masalalar kiritildi. Prezidentimizning nutqi mazmundorligi va ahamiyati bilan alohida ajralib turdi. Qisqa bo‘lishiga qaramay, nutq zamonamizning eng dolzarb mavzularini qamrab oldi: O‘zbekistondagi islohotlar, demokratiya, inson huquqlari, yoshlar masalasi, diniy bag‘rikenglik, xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, ekologiya va hokazo.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgani, inson huquqlarini himoya qilish faollashgani, xalqaro aloqalar uchun keng erkinlik yaratilgani, mamlakatimizning yangi qiyofasi shakllantirilayotganini ta’kidladi. O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratayotgani, o‘zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlashning qat’iy tarafdori ekanini qayd etdi. Shavkat Mirziyoev xorijga chiqish vizalarini «umrini o‘tab bo‘lgan o‘tmish qoldiqlari» deb atadi. Prezidentimiz aytgan «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun», «Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat

qilishi kerak», «Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi» degan shiorlar barchaning tiliga tushdi. BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish, Bosh Assambleyaning «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilishi bo‘yicha takliflari barchada katta qiziqish uyg‘otdi. Sessiya ishtirokchilari Shavkat Mirziyoevning nutqini diqqat bilan tingladi. BMT kanallari orqali bevosita kuzatib bordi. Bosh qarorgohdagi media markazda jurnalistlar o‘zlariga ko‘p narsalarni qayd qilib bordi. Ayniqsa, Prezidentimiz Orol dengizi aks ettirilgan xaritani ko‘rsatganda hamma o‘yga toldi. Shavkat Mirziyoev butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblashini ta’kidladi. Buyuk allomalarimiz, xususan, Imom Buxoriyning g‘oyat boy merosini asrab-avaylash va o‘rganish, -ma’rifiy islom to‘g‘risidagi ta’limotini keng yoyish maqsadida Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiytadqiqot markazi, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilayotganini ma’lum qildi. Nutq yakunlanganda qarsaklar ancha paytgacha tinmadi. Sessiya raisi, davlat rahbarlari -Prezidentimizni tabrikladi, o‘z taassurotlarini bildirishga oshiqdi. Masalan, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo‘g‘on hali hech bir davlat -rahbari BMT minbaridan turib islom dini qadriyatlarini bu qadar jasorat bilan himoya -qilmagani, hech qachon Imom Buxoriy nomini tilga olmaganini ta’kidladi. Xalqaro siyosiy doiralarda, ommaviy axborot vositalarida bu tarixiy nutqqa munosabat bildirish davom etmoqda. Sessiya doirasida mamlakatimiz, xalqimiz uchun yana bir ahamiyatli voqeа bo‘ldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosida mahobatli Registon maydonining maketi o‘rnatildi. Shu munosabat bilan o‘tkazilgan marosimda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ishtirok etdi va nutq so‘zлади. O‘zbekistonning «tashrif qog‘ozи» bo‘lmish ushbu eksponat BMT shtab-kvartirasining eng gavjum joylaridan biriga, BMT Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleya zallari o‘rtasidagi foyega o‘rnatilganida o‘ziga xos chuqur ramziy ma’no bor, dedi davlatimiz rahbari. Buyuk Ipak yo‘lining markazida joylashgan Samarqandda ilm-fan, madaniyat, savdo, me’morlik, hunarmandlik azaldan rivojlangan, turli o‘lkalardan kelgan insonlar ahil-inoq

yashagan. Registon esa ana shunday qadimiy va umumbashariy shaharning betakror ramziga aylangan. Registon maydonining mакeti yurtimizning qo‘ligul usta-hunarmandlari tomonidan yasalgan bo‘lib, qimmatbaho metall va go‘zal milliy naqshlar bilan bezatilgan. Endi Birlashgan Millatlar Tashkilotida ishlaydigan, u yerdagi tadbirlarda qatnashadigan har bir insonning nigohi azaldan taraqqiyot va madaniyat maskani bo‘lgan «O‘zbekistonning bir bo‘lagi»ga tushadi. Prezidentimiz aksariyat davlatlar rahbarlari singari faqat BMT sessiyasida ishtirok etib qaytmadi. Har doimgidek vaqtidan o‘ta unumli foydalandi. Qator davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari, ishbilarmonlar bilan uchrashdi. O‘zbekiston BMTga 1992 yil 2 mart kuni a’zo bo‘lgan. Bugun mamlakatimizda uning qator tuzilmalari — Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti, Bolalar jamg‘armasi, Aholishunoslik jamg‘armasi, Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha boshqarmasi, Taraqqiyot dasturi va boshqa tuzilmalarining vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatayotir.

Joriy yil iyun oyida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Shavkat Mirziyoev 19 sentabr kuni BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan muloqot o‘tkazdi. 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng miqyosli yangilanishlar to‘g‘risida so‘zlab berdi. Antoniu Guterrish Prezidentimizning Bosh Assambleyaning 72-sessiyasidagi nutqi nihoyatda mazmundor bo‘lgani, unda bildirilgan tashabbuslar muhim va o‘z vaqtida ilgari surilganini ta’kidladi. Ushbu tashabbuslarni xalqaro maydonda qo‘llab-quvvatlashini qayd etdi. Bosh kotib O‘zbekiston tomonidan mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, Afg‘onistonni qayta tiklashga ko‘maklashish bo‘yicha ko‘rilayotgan amaliy chora-tadbirlarni yuqori baholadi. Amudaryo va Sirdaryo suv resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyani ilgari surish, Orol dengizi bilan bog‘liq ekologik falokat oqibatlarini yumshatishga xalqaro hamjamiyat diqqat-e’tiborini qaratishini bildirdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston bilan BMT o‘rtasidagi hamkorlik istiqbollari bo‘yicha atroflicha fikr almashildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Zayd Raad al-Husayn, Xalqaro valyuta jamg‘armasi farmoyish beruvchi direktori Kristin Lagard, Jahon banki prezidenti Jim Yong Kim bilan uchrashdi. Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radev, Gruziya Bosh vaziri Georgiy Kvirikashvili bilan mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha muzokaralar o‘tkazdi. Uchrashuvlar belgilangan vaqtidan ko‘ra ko‘proq davom etdi. Bu — ko‘rilgan masalalar ko‘pligi, muzokaralar mazmunan boy bo‘lganidan dalolat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev AQShning yetakchi kompaniyalari rahbarlarini qabul qildi. Uchrashuvda Amerika — O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, «Jeneral Elektrik» kompaniyasi prezidenti Ron Pollett, «Xanivell» kompaniyasi bo‘linmasi prezidenti va bosh direktori Rajiv Gautam, «SiEnEych Indastrial» kompaniyasi vise-prezidenti Stiven Naderni, «Dir end Kompani» kompaniyasi prezidenti Jeyms Fild ishtirok etdi. Mamlakatimizda valyuta sohasida bozor mexanizmlari joriy etilgani, savdodagi turli to‘silqlar olib tashlangani, ishbilarmonlik va investisiya muhiti yanada yaxshilanayotgani ta’kidlandi. O‘zbekiston — AQSh ishbilarmon doiralari o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash masalalari muhokama etildi. O‘zaro manfaatli yo‘nalishlar taklif qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashrifi doirasida 20 sentabr kuni Nyu-Yorkda O‘zbekiston — AQSh biznes forumi bo‘lib o‘tdi. Unda Amerika Qo‘shma Shtatlarining 100 dan ortiq yetakchi kompaniyalari rahbarlari ishtirok etdi. Forum ishtirokchilari o‘zlarini qiziqtirgan aniq investisiya va savdo loyihalarini muhokama qildi, ularni amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma tadbirlarni belgilab oldi. Tadbir yakunida uzoq muddatga mo‘ljallangan 2,6 milliard dollarlik hujjatlar imzolandi. Prezident Shavkat Mirziyoev Amerika Qo‘shma Shtatlarida istiqomat qilayotgan bir guruh vatandoshlarimiz bilan uchrashdi. Prezidentimiz 2017 — 2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, Ma’muriy islohotlar

konsepsiyasining ahamiyati haqida so‘z yuritdi. Sud-huquq, moliya, kichik biznes, turizm, tibbiyot sohalaridagi o‘zgarishlar to‘g‘risida ma’lum qildi. Mamlakatimizda ilm-fan va ta’limni rivojlantirish, zamonaviy kadrlar tayyorlash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilayotgani ta’kidlandi. Yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining yoshlar huquq va manfaatlarini ta’minalash borasidagi faoliyati haqida so‘z bordi. Davlatimiz rahbari vatandoshlarimizni O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga daxldor bo‘lish, zamonaviy bilim va tajribalarini yurtimiz rivojiga yo‘naltirishga da’vat etdi. Ayni paytda sizlarning va siz kabi chet ellarda yurgan minglab yurtdoshlarimizning kuch-g‘ayrat va salohiyatidan mamlakatimiz taraqqiyoti uchun to‘laqonli foydalanilmoqda, deb ayta olmaymiz. Sizlarning qalbingizda, yuragingizda yurtimizda kechayotgan jarayonlarga o‘z hissasini qo‘sish istagi ham, buning uchun zarur salohiyat ham bor, bizning bu borada ham qiladigan ishlarimiz ko‘p, dedi Shavkat Mirziyoev. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli o‘zgarishlarda yuqori natijaga erishish uchun yangi yondashuvlar talab etiladi. Men bugungi kunda zamonaviy fikrlaydigan va amalga oshirilayotgan islohotlarimiz maqsadini chuqr anglaydigan kadrlar bilan ishlashga tayyor ekanimni ta’kidlab aytmoqchiman. Mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo‘sish istagida bo‘lgan chet eldag‘i barcha vatandoshlarimizni O‘zbekistonga taklif etaman, dedi davlatimiz rahbari. Men ularni qo’llab-quvvatlashga va har tomonlama rag‘batlantirishga tayyorman. Hammamiz jonajon Vatanimiz ravnaqi yo‘lida bir yoqadan bosh chiqarib birlashsak, oldimizga qo‘ygan har qanday yuksak marraga albatta yetishimizga ishonaman.

Uchrashuv qatnashchilari Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirishga xizmat qilishini qayd etdi. Mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirishga hissa qo‘sishga tayyor ekanliklarini ta’kidladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev rafiqasi bilan Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp tomonidan uyushtirilgan rasmiy qabul marosimida ishtirok etdi. Prezidentimizning AQShga

tashrifi tom ma’noda tarixiy voqealarni bo’ldi. Bularning barchasi O‘zbekiston manfaati, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

#### **IV. AMALIY MASHG‘ULOTLARINING MAZMUNI**

**1-Mavzu: “Rivojlanish”, “strategiya”, “konsepsiya” va “innovasion rivojlanish” tushunchalarining mazmuni hamda turli xil yondoshuvlar.**

**Reja:**

1. “Rivojlanish”, “strategiya” tushunchalarining mazmun mohiyati.
2. “Konsepsiya” tushunchasining mazmuni hamda unga turli xil yondoshuv.
3. “Innovasion rivojlanish” tushunchasining mazmuni.

**«Aqliy hujum»**

**Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo‘roni)** – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbولي va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi va rivojlantiriladi, ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o‘quv-o‘rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqat madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoali aqliy hujum** – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta’minlaydi. Butun o‘quv guruhi (25dan ortiq bo‘lmagan) bitta muammoni hal etadi.

**Ommaviy aqliy hujum** – mikroguruhlarga bo‘lingan katta auditoriyada (60 kishigacha) fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi. Har bir guruh ichida umumiyl muammoning bir jihatni hal etiladi.

**❸ Aqliy hujum qoidalari**

- *Hech qanday o‘zaro baholash va tanqidga yo‘l qo‘yilmaydi!*  
*Taklif etilayotgan fikrlarni baholashga shoshilma, agarda ular g‘aroyib bo‘lsa ham – barcha narsa mumkin.*
- Tanqid qilma – barcha fikrlar teng qadrli.**
- So‘zlovchini to‘xtatma!**
- Tanbeh berma!**
- **Maqsad bu miqdor!**  
*Fikrlar qanchalik ko‘p bildirilsa, shuncha yaxshi: yangi va qadrli fikr paydo bo‘lish ehtimoli ortadi.*
- Agar fikrlar qaytarilsa hafa bo‘lma va achchiqlanma.**
- *Tasavvuriningga erk ber!*  
*Paydo bo‘layotgan fikrlardan o‘zingni to‘xtatma, agar seningcha ular qabul qilingan chizmalarga mos kelmasa ham.*
- Muammo hammaga ma’lum usullar orqali yechilishi mumkin deb o‘ylama.**

Bugungi ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlardan yana biri **«Klaster» metodidir**. Uning asoschisi - D. Klaster. Bu metoddan ham guruqlar tashkil etish yo‘sinda foydalanish mumkin. Unda guruh a’zolari tomonidan aytilayotgan fikrlarni uygunlashtirish va ular orasidagi umumiylikni topish imkoniyati paydo bo‘ladi. «Klaster» metodidan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. o‘quvchilar ma’lum mavzu xususida nimaniki o‘ylagan bo‘lsalar, shuni qogozga tushiridalar. Bu yerda fikrning sifati va mantiqining ham, xatolarning ham ahamiyati yo‘q.
2. o‘quvchilar belgilangan vaqt tugamaguncha fikrlarini yozaveradilar. Agar fikr kelmasa, biror narsaning rasmini chizadilar. Bu harakat mavzu haqida yangi bir goya tugilgunga qadar davom ettirilaveriladi.
